Maxsus ta’limda ota-onalarning huquqlari bo‘yicha qo‘llanma

Maxsus ta’lim bo‘yicha protsessual kafolatlar to‘g‘risidagi bildirishnoma

2025-yil aprel

Ohio Department of Education & Workforce

MAXSUS TA’LIM HAQIDA 2

Maktabingizning maxsus ta’lim bo‘yicha mas’ul shaxs aloqa ma’lumotlari 2
Ohayo (Ohio) shtati ta’lim va kadrlar departamenti (Ohio Department of Education and Workforce (ODEW))’ning maxsus ta’lim bo‘yicha bo‘yicha mas’ul shaxs aloqa ma’lumotlari 2

USHBU OTA-ONALAR HUQUQLARI BO‘YICHA QO‘LLANMAGA KIRISH. 3

UMUMIY MA’LUMOT 4

Ota-onaning xabardor qilingan roziligi 4
Ota-onaning xabardor qilingan roziligini berishingiz uchun, ta’lim muassasasi quyidagilarni bajarishi shart 5
Farzandingiz maxsus ta’lim olish huquqiga egami? 6
O‘quvchini mustaqil kompleks baholash (Independent Educational Evaluations (IEE)) 7
Oldindan yozma bildirishnoma 8
Individuallashtirilgan ta’lim dasturi (Individualized Education Program (IEP)) 9

TA’LIMGA OID QAYDNOMALAR 10

Qaydnomalardan foydalanish imkoniyati mavjudligi 10

NIZOLARNI HAL ETISH 12

Nizolarni hal etish jarayoni 12
Erta bosqichda shikoyatlarni hal etish 13
Fasilitatsiya xizmati 13
Vositachalik 15
Shtat darajasida shikoyat keltirish 16
Tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatni keltirish 20

TEGISHLI HUQUQIY JARAYON DOIRASIDA ISHNI KO‘RISH MUDDATLARI VA JARAYONI 22

Ma’lumotlar to‘liqligi 22
Hal etish muddati 23
Sud muhokamasi jarayoni 24
Tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatlarni tezlashtirilgan tartibda ko‘rib chiqish va muddatlar 25
Qaror ustidan appelatsiya shikoyati keltirish 26
Tegishli huquqiy jarayon doirasida ishni ko‘rishda bolaning maqomi 27
Advokatlik haqi 28

INTIZOM 30

Nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan intizomiy choralar protsessual tartibi 30
Xulq-atvorning nogironlik bilan bog‘liqligini aniqlash 31
Oraliq muqobil (vaqtinchalik va farqli) ta’lim muhiti 32

OTA-ONALAR TOMONIDAN NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALARNI DAVLAT MABLAG‘LARI HISOBIDAN XUSUSIY MAKTABGA BIR TOMONLAMA JOYLASHTIRISH 34

Xarajatlarni qoplash bo‘yicha qaror qabul qilish jarayoni 34

NOGIRONLIGI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR UCHUN STIPENDIYA DASTURLARI HAQIDA OTA-ONALARNI XABARDOR QILISH 35

Xabardor qilish vaqtida 35

Maxsus ta’lim haqida

3 yoshdan 21 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchilar uchun maxsus ta’lim federal va shtat talablari asosida tashkil etiladi. Federal talablar Nogironligi bo‘lgan shaxslar ta’limi to‘g‘risidagi qonun (Individuals with Disabilities Education Act (IDEA)) deb yuritiladi. Shtat talablari Nogironligi bo‘lgan bolalarni ta’lim bilan ta’minlash bo‘yicha Ohayo shtati faoliyat standartlari (Ohayo shtati faoliyat standartlari (Ohio Operating Standards (OOS))) deb yuritiladi.

Ushbu qo‘llanma Sizning va farzandingizning huquqlarini IDEA va OOS’larga muvofiq tushunishingizga yordam beradi. Shuningdek, u Sizga farzandingizga ko‘rsatiladigan maxsus ta’lim yordami va xizmatlarini tushunishingiz uchun ma’lumot va manbalarni taqdim etadi.

Mahalliy ta’lim muassasangiz (masalan, maktab okrugi) ham ushbu qonun doirasidagi huquqlaringizni tushunishingizga yordam berishi mumkin. Agar ushbu qo‘llanmadagi ma’lumotlar bo‘yicha savollaringiz bo‘lsa, ta’lim muassasangizning maxsus ta’lim bo‘yicha direktoriga murojaat qiling.

Maktabingizning maxsus ta’lim bo‘yicha mas’ul shaxsning aloqa ma’lumotlari

Iltimos, ushbu interaktiv bo‘limga quyidagi ma’lumotlarni kiriting:
Ta’lim muassasasi:
Maxsus ta’lim bo‘yicha direktor:
Telefon raqami:
Elektron pochta manzili:

ODEW’ning maxsus ta’lim bo‘yicha mas’ul shaxsning aloqa ma’lumotlari

(Telefon) 614-466-2650
(Bepul telefon raqami) 877-644-6338
(Faks) 614-728-1097

Manzil: 25 S. Front Street,
Mail Stop 409
Columbus, Ohio 43215
Qo‘shimcha aloqa ma’lumotlari

Exceptionalchildren@education.ohio.gov

Teletayp mashinkasidan (TTY) foydalanadigan qo‘ng‘iroq qiluvchilar, iltimos, (800) 750-0750 raqami orqali Ohayo retranslyatsiya xizmati (Ohio Relay Service (ORS))’ga qo‘ng‘iroq qiling.

Ushbu Ota-onalar huquqlari bo‘yicha qo‘llanmaga kirish

IDEA qonuni nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar va ularning ota-onalari huquqlarini himoya qiladi. Ushbu huquqlar haqida ma’lumot ushbu qo‘llanmada beriladi. Agar farzandingiz maxsus ta’lim xizmatlaridan foydalansa, maktabingiz Sizga ushbu qo‘llanmaning nusxasini yiliga bir marta taqdim etishi shart. Sizga quyidagi hollarda ham nusxa taqdim etilishi shart:

- Agar farzandingizda nogironlik bo‘lishi mumkin deb hisoblab, uni baholashdan o‘tkazishni so‘rasangiz
- Agar ta’lim muassasangiz farzandingizda nogironlik bo‘lishi mumkin deb hisoblab, uni baholashdan o‘tkazishni xohlasa
- Agar ODEW departamentining Alohida ehtiyojli bolalar boshqarmasi (Office for Exceptional Children (OEC))’ga yozma ravishda shikoyat keltirsangiz (taqdim etsangiz) va bu o‘quv yilidagi birinchi shikoyatingiz bo‘lsa
- Agar Siz ODEW departamentining OEC boshqarmasiga farzandingizning ta’limi masalasida tegishli huquqiy jarayon doirasida sud muhokamasi o‘tkazilishini so‘rab, yozma ravishda murojaat qilsangiz va bunday sud muhokamasini joriy o‘quv yilida birinchi marta so‘rayotgan bo‘lsangiz
- Agar farzandingiz intizomiy (xulq-atvor) sabablarga ko‘ra maktabdan chetlashtirilgan bo‘lsa va joriy o‘quv yili davomida allaqachon 10 kun yoki undan ko‘proq muddatga maktabdan chetlashtirilgan bo‘lsa
- Qo‘llanmaning nusxasini istalgan vaqtda so‘raganingizda

Umumiy ma’lumot

Ota-onaning xabardor qilingan roziligi

Har kim bolani maxsus ta’limga ehtiyoj bo‘yicha baholash uchun yo‘llashi mumkin. Ota-ona sifatida farzandingizning ta’lim olishi, rivojlanishi yoki hayot faoliyati borasida xavotirlaringiz paydo bo‘lganda, farzandingizning o‘qituvchisi, maktab direktori hamda maxsus ta’lim bo‘yicha rahbar yoki ma’muriy boshqaruvchiga farzandingizni maxsus ta’limga ehtiyoj bo‘yicha baholash o‘tkazilishini so‘rab, yozma murojaat qilishingiz lozim. Maktab so‘rovni olganidan so‘ng, baholash o‘tkazish yoki o‘tkazmaslik to‘g‘risidagi qarorini sizga bildirish uchun 30 kun muddatga ega. Baholash jarayonini boshlash uchun, ota yoki ona o‘z yozma roziligini taqdim etishi shart.

Bola maxsus ta’lim va tegishli xizmatlardan foydalanish huquqiga ega deb topilgach, Baholash guruhi hisoboti (evaluation team report (ETR))’dagi ma’lumotlar asosida Individualashtirilgan ta’lim dasturi (Individualized Education Program (IEP)) ishlab chiqiladi. IEP dasturi (IEP) — bu farzandingiz o‘quv yili davomida erishish uchun o‘z ustida ishlaydigan ta’lim maqsadlari va vazifalarini belgilab beruvchi hujjat. Shuningdek, unda IEP dasturida belgilangan maqsadlarga erishish uchun farzandingizga zarur bo‘lgan yordam va xizmatlar ko‘rsatiladi.

Farzandingiz uchun IEP dasturini tuzish guruhi tayinlanadi va uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Ota-ona
- Kamida bitta umumiy ta’lim o‘qituvchisi (agar bola umumiy ta’lim muhitida ta’lim olayotgan yoki olishi mumkin bo‘lsa)
- Bolaning kamida bitta maxsus ta’lim o‘qituvchisi yoki xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassisi
- Ta’lim muassasasining malakali vakili
- Baholash natijalarining ta’lim jarayoniga ta’sirini talqin qila oladigan shaxs
- Ota-ona yoki ta’lim muassasasi ixtiyoriga ko‘ra, bola haqida bilim yoki maxsus ekspert bilimga ega bo‘lgan boshqa shaxslar, jumladan, zarur hollarda tegishli xizmatlar xodimlari
- Zarur hollarda nogironligi bo‘lgan bolaning o‘zi.

IEP'ni ko‘rib chiqish: IEP guruhi IEP'ni ko‘rib chiqish uchun kamida yiliga bir marta yig‘ilishi shart, biroq IEP'ga tuzatish kiritish uchun, ayniqsa bola rivojlanishida ijobiy siljish bo‘lmayotgan bo‘lsa, bundan ham tez-tez yig‘ilishi mumkin. Ohio qonunchiligiga ko‘ra, maxsus ta’lim xizmatlarini boshlash uchun ota-onaning roziligi talab qilinadi, biroq IEP'larini keyinchalik ko‘rib chiqish yoki ularga o‘zgartirishlar kiritish uchun bunday rozilik talab etilmaydi. Shunga qaramay, IEP jarayonida ota-onaning faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Dasturga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha har qanday yig‘ilishda ota-onalar IEP guruhining majburiy a’zolari hisoblanadi.

Ota-ona ishtiroki: Nogironligi bo‘lgan bolaning ota-onasi sifatida, siz har bir IEP guruhi yig‘ilishi haqida xabardor qilinish va unda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lish huquqiga egasiz. Ta’lim muassasasi sizning yig‘ilishda qatnasha olishingizni ta’minlash hamda yig‘ilishni tomonlar bilan o‘zaro kelishilgan vaqt va joyda o‘tkazishni rejalashtirish uchun, sizni yetarlicha oldindan xabardor qilishi shart.

Surrogat ota-ona kim?

Surrogat ota-ona — bu nogironligi bo‘lgan bolaning maxsus ta’lim xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega bo‘lishi va ushbu xizmatlardan foydalanishi bilan bog‘liq barcha masalalarda uning manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega bo‘lgan shaxs.

Siz yashaydigan hududdagi ta’lim muassasasi quyidagi holatlardan biri yuzaga kelganda surrogat ota-onani tayinlaydi:

- Ota-onani aniqlashning imkoni bo‘lmasa
- Ta’lim muassasasi oqilona choralarni ko‘rganidan keyin ham ota-onani topa olmasa
- Bola hamrohsiz qolgan boshpanasiz o‘smir bo‘lsa
- Bola shtat qaramog‘ida bo‘lsa

Ota-onaning xabardor qilingan roziligi – bu siz va/yoki ta’lim muassasasi tomonidan tayinlangan surrogat ota-ona ta’lim muassasasiga muayyan harakatni amalga oshirishga yozma ravishda ruxsat berishingizni anglatadi. Sizning xabardor qilingan roziligingiz, shuningdek, ta’lim muassasasi sizga taklif qilinayotgan chora-tadbir haqida ma’lumot berganini anglatadi. Ta’lim muassasasi sizning yozma xabardor qilingan roziligingizni quyidagi hollarda olishi shart:

- Ta’lim muassasasi farzandingizni unga maxsus ta’lim va tegishli xizmatlar zarur yoki zarur emasligini aniqlash uchun birinchi marta baholashidan oldin.
- Ta’lim muassasasi farzandingizga uning birinchi individuallashtirilgan ta’lim dasturida, yohud IEP’ida, ko‘rsatilgan maxsus ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishni boshlashidan oldin.
- Ta’lim muassasasi farzandingizning ehtiyojlari o‘zgargan-o‘zgarmaganini aniqlash uchun uni qayta baholashidan oldin.
- Ta’lim muassasasi farzandingiz bilan qo‘shimcha individual baholashlarni o‘tkazishidan oldin. Bunga misol sifatida Funksional xulq-atvorni baholashni keltirish mumkin.
- Ta’lim muassasasi farzandingizning ta’lim olish shaklini o‘zgartirishidan oldin. Bu albatta binoning joylashuvi o‘zgarishini anglatmaydi. Buning o‘rniga, bu farzandingizning ta’lim dasturidagi o‘zgarishni anglatadi.
- Ta’lim muassasasi shtat yoki federal qonunchilikda ko‘rsatilgan shaxslardan boshqa biror kishiga farzandingiz haqida ma’lumot berishidan oldin.

IEP guruhi o‘quvchi haqidagi mavjud ma’lumotlar yetarli va qo‘shimcha testlar talab etilmaydi, deb qaror qilgan taqdirda ham, qayta baholash uchun ota-onaning roziligi talab etiladi. Bu ba’zan “hujjatlarni ko‘rib chiqish” asosidagi qayta baholash deb ataladi.

Quyidagi holatlardan biri yuz berganda ota-onaning xabardor qilingan roziligi talab etilmaydi:

- Ta’lim muassasasi baholash/qayta baholash jarayonining doirasida o‘quvchi haqidagi mavjud ma’lumotlarni ko‘rib chiqayotgan bo‘lsa.
- Ta’lim muassasasi barcha o‘quvchilarga majburiy bo‘lgan baholashlarni farzandingiz bilan ham o‘tkazsa.

Xabardor qilingan ota-ona roziligingizni bera olishingiz uchun, ta’lim muassasasi:

- Qaror qabul qilishingiz uchun zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarni sizga taqdim etish maqsadida, ona tilingiz yoki siz tushunadigan boshqa muloqot shaklidan foydalanilganiga ishonch hosil qilishi lozim.
- Ta’lim muassasasi muayyan harakatni amalga oshirishini tushungan holda bunga yozma ravishda rozilik berganingizga va bu rozilikda amalga oshiriladigan harakat, shuningdek, farzandingizning boshqa shaxslar bilan bo‘lishiladigan hujjatlari hamda ular kim bilan bo‘lishilishi ko‘rsatilganiga ishonch hosil qilishi lozim.
- Rozilikni o‘z xohishingiz bilan berayotganingizni va fikringizni istalgan vaqtda o‘zgartirishingiz mumkinligini tushunganingizga ishonch hosil qilishi lozim.
- Roziligingizni qaytarib olgan taqdiringizda, bu bilan ta’lim muassasasi siz rozilik bergan va uni qaytarib olgan vaqt oralig‘ida amalga oshirgan harakatlarini bekor qilishi shart emasligini tushunganingizga ishonch hosil qilishi lozim.

ROZILIKNI QAYTARIB OLISH

Rozilikni qaytarib olish bergan ruxsatingizni qaytarib olishingizni anglatadi. Agar farzandingiz IEP'da nazarda tutilgan maxsus ta'lim xizmatlaridan foydalanishni davom ettirishini istamasangiz, roziligingizni istalgan vaqtda qaytarib olishingiz mumkin. Buni *yozma ravishda*amalga oshirishingiz shart.

Shundan so'ng, ta'lim muassasangiz:

- Farzandingizga IEP'da belgilangan maxsus ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni to'xtatishi shart, biroq xizmatlarni to'xtatishdan oldin ta'lim muassasasi sizga xizmatlar to'xtatilishi haqida yozma ravishda xabar berishi shart. Ta'lim muassasasi sizga beradigan ushbu xabar oldindan yozma bildirishnoma deb ataladi. Ushbu oldindan yozma bildirishnoma mazkur qo'llanmaning 8-sahifasidagi Oldindan yozma bildirishnoma bo'limida belgilangan talablarga javob berishi shart.

Ta'lim muassasasi bundan buyon farzandingizga maxsus ta'lim xizmatlarini ko'rsatmasligi haqida oldindan yozma bildirishnoma berganidan va xizmatlar to'xtatilganidan so'ng, ta'lim muassasasi farzandingizni bundan buyon maxsus ta'lim olish huquqiga ega deb hisoblamaydi va uni umumiy ta'lim o'quvchisi sifatida ko'rib chiqadi.

Farzandingiz maxsus ta'lim olish huquqiga egami?

Nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risidagi qonun (IDEA) va Ohio ma'muriy kodeksibo'yicha nogironligi bo'lgan talaba sifatida ko'rilishi uchun, farzandingizda quyidagi nogironliklardan biri bo'lishi kerak. Ushbu nogironlik farzandingizning ta'lim olishdagi natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi va farzandingiz nogironligi sababli maxsus ta'lim va/yoki tegishli xizmatlarga muhtoj bo'lishi kerak.

- Aqliy rivojlanish buzilishi
- Eshitish qobiliyati buzilishi
- Nutq yoki til rivojlanishining buzilishi
- Ko'rish qobiliyati buzilishi
- Emotsional buzilish
- Ortopedik buzilishlar
- Autizm
- Bosh miya jarohati
- Boshqa sog'liq buzilishlari
- O'rganuvchanlikning spetsifik buzilishi
- Karlik
- Kar-ko'rlik
- Ko'p sonli nogironlik
- Rivojlanish kechikishi

Ona tili yoki boshqa muloqot shakli

Siz qatnashadigan barcha yig'ilishlar, farzandingizning baholanishi va siz oladigan barcha bildirishnomalar ona tilingizda yoki foydalanadigan boshqa muloqot shaklingizda yozma yoki og'zaki tarzda taqdim etilishi shart.

Farzandingizni baholashda foydalaniladigan barcha testlar va boshqa materiallar farzandingizning ona tilida yoki maktab okrugiga farzandingizning akademik, rivojlanish va funksional jihatdan nimalarni bilishi va nimalarni bajara olishi haqida aniq ma'lumot beradigan boshqa muloqot vositasida bo'lishi lozim, basharti ularni taqdim etish yoki o'tkazish aniq ravishda imkonsiz bo'lmasa.

TA'LIM MUASSASASIDAN FARZANDINGIZNI BAHOLASHNI SO'RASH

Agar farzandingizda uning ta'lim olishiga ta'sir ko'rsatayotgan nogironlik bo'lishi mumkin deb hisoblasangiz, ta'lim muassasasidan farzandingizni baholab, uning maxsus ta'lim olish talablariga javob berish-bermasligini (IDEA qonuni bo'yicha nogironligi bo'lgan bola hisoblanish-hisoblanmasligini) aniqlashni so'rashingiz mumkin. Ta'lim muassasasi sizning so'rovingizdan keyin 30 kun ichida yoki sizning xabardor qilingan roziligingizni olishi, yoki nega farzandingizda nogironlik mavjudligiga shubha qilmayotganligi sabablarini tushuntiruvchi oldindan yozma bildirishnoma taqdim etishi shart.

Ta’lim muassasasi nogironlik mavjudligidan shubhalangan taqdirda, istalgan vaqtda farzandingizni baholash uchun sizdan ruxsat so‘rashi mumkin. Har ikkala holatda ham ta’lim muassasasi sizning yozma xabardor qilingan roziligingizni olganidan so‘ng, dastlabki (birinchi) baholashni 60 kalendar kuni ichida yakunlashi kerak.

AGAR FARZANDINGIZ BIR MAKTABDAN BOSHQA MAKTABGA O‘TSA

Agar farzandingiz Ohio shtatidagi bir ta’lim muassasasidan boshqa ta’lim muassasasiga o‘tsa, yangi ta’lim muassasasi avvalgi ta’lim muassasasining baholash natijalarini olgan kundan boshlab 30 kun ichida quyidagilardan birini amalga oshirishi shart:

- Avvalgi ta’lim muassasasi tomonidan o‘tkazilgan baholashni qabul qilishi; yoki
- Qayta baholash uchun rozilik olishi.

Yangi ta’lim muassasasi tomonidan o‘tkaziladigan har qanday qayta baholash ota-onaning roziligi olingan kundan boshlab 60 kun ichida o‘tkazilishi shart.

AGAR BOLA SHTAT QARAMOG‘IDA BO‘LSA

Agar farzandingiz *shtat qaramog‘ida* bo‘lsa va ota-onasi bilan yashamasa, quyidagi holatlarda bolaning nogironligi bo‘lgan bola ekanligini aniqlash uchun dastlabki baholashni o‘tkazishda ta’lim muassasasiga ota-onaning roziligi kerak bo‘lmaydi:

- Agar ta’lim muassasasi bolaning ota-onasini topish uchun oqilona choralar ko‘rganiga qaramay, ularni topa olmasa
- Ota-onaning huquqlari bekor qilingan bo‘lsa; yoki
- Ota-onaning huquqlari sudya tomonidan dastlabki baholashga rozilik beradigan boshqa shaxsga berilgan bo‘lsa

O‘quvchini mustaqil kompleks baholash (Independent Educational Evaluations (IEE))

O‘quvchini mustaqil kompleks baholash (IEE) tashqi baholash deb ham ataladi. Ta’lim muassasasi ushbu tashqi baholash xarajatlarini faqat o‘zi farzandingizni avval baholagan va siz ta’lim muassasasi chiqargan xulosaga rozi bo‘lmagan taqdiringizdagina to‘laydi. Ushbu baholashdan maqsad farzandingiz maxsus ta’limga muhtoj-muhtoj emasligini yoki maxsus ta’limga ehtiyoji saqlanib qolgan-qolmaganini aniqlashdir. Farzandingizni ushbu tashqi baholash uchun baholaydigan shaxs farzandingiz o‘qiydigan ta’lim muassasasida ishlaydigan bo‘lmasligi lozim. Siz, ota-ona sifatida, istalgan vaqtda farzandingiz uchun tashqi baholashni mustaqil ravishda tashkil etish va uning xarajatlarini to‘lash huquqiga egasiz. Ta’lim muassasangizning farzandingizni baholash natijalariga rozi bo‘lmasangiz va tashqi baholashni so‘rasangiz, ta’lim muassasangiz ortiqcha kechiktirmasdan quyidagi choralaridan birini ko‘rishi shart:

- Ta’lim muassasasi farzandingizni mustaqil ravishda qayerda tashqi baholatishingiz mumkinligi va ta’lim muassasasi ushbu xarajatni to‘lashi uchun zarur bo‘lgan mezonlar haqida sizga ma’lumot berishi shart. Ta’lim muassasasi to‘lashga rozilik bildirib, siz tashqi baholashni o‘tkazganingizdan so‘ng, ta’lim muassasasi uning xarajatlarini to‘laydi.
- Ta’lim muassasasi tashqi baholash haqidagi so‘rovingizga rozi bo‘lmasa, ODEW Departmentining OEC boshqarmasiga tegishli huquqiy jarayon doirasida sud muhokamasi o‘tkazilishni so‘rab murojaat qilishi shart (20-sahifaga qarang). Bunga sabab, ta’lim muassasasi farzandingiz bilan o‘zi tomonidan o‘tkazilgan baholashni to‘g‘ri deb hisoblashidir.

TASHQI BAHOLASH UCHUN MEZONLAR

Siz tashkil etadigan va ta’lim muassasasi to‘laydigan tashqi baholashlarga ham ayni ta’lim muassasasi tomonidan o‘tkaziladigan baholashlarga qo‘llaniladigan mezonlar qo‘llaniladi. Ushbu mezonlar farzandingiz baholashdan o‘tkaziladigan joyni hamda farzandingizni tekshiradigan mutaxassisning tajribasini o‘z ichiga oladi. Ta’lim muassasasi o‘z mezonlariga javob beradigan tashqi baholashning to‘liq xarajatlarini to‘lashi shart.

Agar siz farzandingiz uchun tashqi baholash o‘tkazilishini so‘rasangiz, ta’lim muassasasi sizdan nima sababdan uning baholashiga norozi ekanligingizni (ya’ni, nima uchun tashqi baholashni xohlayotganingizni) so‘rashi mumkin, ammo xohlamasangiz, buni tushuntirishingiz shart bo‘lmaydi. Siz ta’lim muassasasi farzandingizni baholaygan va siz baholash natijalariga norozi bo‘ladigan bitta holat uchun, ta’lim muassasasiga tashqi baholashni faqat bir marta to‘lattirish huquqiga ega bo‘lasiz.

Farzandingiz ta’lim muassasasi mezonlariga javob beradigan tashqi baholashdan o‘tgach, unga kim to‘laganidan qat’i nazar, ta’lim muassasasi ushbu baholash natijalarini ko‘rib chiqishi va farzandingizga "Ehtiyojlarga mos bepul davlat ta’limi (Free Appropriate Public Education (FAPE))" huquqini qanday taqdim etishini aniqlashi shart bo‘ladi.

Oldindan yozma bildirishnoma

QISQACHA TAHLIL

Ta’lim muassasasi muayyan chorani taklif qilishi yoki rad etishidan oldin, sizga oqilona muddat ichida yozma bildirishnoma (oldindan yozma bildirishnoma) yoborishi shartdir. Ushbu choralar qatoriga ta’lim muassasasining farzandingiz maqomini aniqlash, baholash yoki ehtiyojiga qarab ta’lim shaklini aniqlash ishlarini boshlashi yoki o‘zgartirishi, shuningdek, farzandingizga ehtiyojlarga mos bepul davlat ta’limini taqdim etishi kiradi. Oldindan yozma bildirishnoma maxsus ta’lim sohasidagi majburiy shakl hisoblanadi.

OLDINDAN YOZMA BILDIRISHNOMA MAZMUNI

Oldindan yozma bildirishnomada siz farzandingizga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari bo‘yicha qarorlarni xabardor holda qabul qilishda ishtirok eta olishingiz uchun yetarli darajada batafsil ma’lumot bo‘lishi lozim. Oldindan yozma xabarnoma quyidagilarni o‘z ichiga olishi shart:

- Ta’lim muassasasi tomonidan taklif qilinayotgan yoki rad etilayotgan choraning tavsifi
- Ta’lim muassasasi nima sababdan ushbu chorani taklif qilayotgani yoki uni amalga oshirishdan bosh tortayotgani haqida tushuntirish
- Maktab qaror qabul qilishda foydalangan har bir baholash jarayoni, tekshiruv, qaydnoma yoki hisobotning tavsifi
- Siz IDEA qonunining protsessual kafolatlari bilan himoyalanganligingiz haqidagi bayonot hamda, agar bu bildirishnoma dastlabki baholash uchun yo‘llanma hisoblanmasa, ushbu protsessual kafolatlar tavsifini qanday olishingiz mumkinligi haqidagi ma’lumot
- IDEA talablarini tushunishda yordam olish uchun murojaat qilishingiz mumkin bo‘lgan manbalar
- IEP dasturini ishlab chiqish jamoasi ko‘rib chiqqan boshqa variantlarning tavsifi va ular nima sababdan rad etilganligi
- Ta’lim muassasasining taklifi yoki rad javobiga aloqador boshqa muhim omillarning tavsifi

OLDINDAN YOZMA BILDIRISHNOMA TUSHUNARLI TILDA

Oldindan yozma bildirishnoma keng jamoatchilik uchun tushunarli tilda taqdim etilishi hamda sizning ona tilingizda yoki boshqa muloqot shaklingizda yozilishi shart, bundan buni amalga oshirish amaliy jihatdan mutlaqo imkonsiz bo‘lgan holatlar mustasno.

Agar sizning ona tilingiz yoki boshqa muloqot vositangiz yozma til *bo‘lmasa* , ta’lim muassasasi oldindan yozma bildirishnomani ona tilingizga yoki boshqa muloqot shaklingizga og‘zaki tarjima qilishi yoki boshqa tushunarli usulda yetkazishi uchun zarur choralarni ko‘rishi shart. Ta’lim muassasasi oldindan yozma bildirishnoma tegishli tarzda tarjima qilinganini va siz uning mazmunini tushunganingizni yozma ravishda tasdiqlay olishiga amin bo‘lishi lozim bo‘ladi.

Individuallashtirilgan ta’lim dasturi (Individualized education program (IEP))

Individuallashtirilgan ta’lim dasturi (IEP) — bu farzandingiz o‘quv yili davomida erishish uchun o‘z ustida ishlaydigan ta’lim maqsadlari va vazifalarini belgilab beruvchi hujjat. Shuningdek, unda IEP dasturida belgilangan maqsadlarga erishish uchun farzandingizga zarur bo‘lgan yordam va xizmatlar ko‘rsatiladi.

IEP jamoasi a’zolari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Ota-ona
- Kamida bitta umumiy ta’lim o‘qituvchisi (agar bola umumiy ta’lim muhitida ta’lim olayotgan yoki olishi mumkin bo‘lsa)
- Bolaning kamida bitta maxsus ta’lim o‘qituvchisi yoki xizmat ko‘rsatuvchi mutaxassisi
- Ta’lim muassasasining malakali vakili
- Baholash natijalarining ta’lim jarayoniga ta’sirini talqin qila oladigan shaxs
- Ota-ona yoki ta’lim muassasasi ixtiyoriga ko‘ra, bola haqida bilim yoki maxsus ekspert bilimga ega bo‘lgan boshqa shaxslar, jumladan, zarur hollarda tegishli xizmatlar xodimlari
- Zarur hollarda nogironligi bo‘lgan bolaning o‘zi.

IEP dasturini ko‘rib chiqish: IEP jamoasi IEP’ni ko‘rib chiqish uchun kamida yiliga bir marta yig‘ilishi shart, biroq IEP’ga tuzatish kiritish uchun, ayniqsa bola rivojlanishida ijobiy siljish bo‘lmayotgan bo‘lsa, bundan ham tez-tez yig‘ilishi mumkin. Ohio shtatida, IEP’ni har yili ko‘rib chiqish va unga o‘zgartirishlar kiritish jarayonida IEP’ni amalga oshirish uchun ota-onaning roziligi talab qilinmaydi. Ota-onaning roziligi faqat dastlabki IEP uchun talab qilinadi. Siz IEPni ishlab chiqishda o‘z fikr-mulohazalaringizni bildirishda faol ishtirok etasiz va IEPni ko‘rib chiqish yig‘ilishlarida qatnashishingiz qat’iy tavsiya etiladi.

Ota-onaning ishtiroki: Nogironligi bo‘lgan bolaning ota-onasi sifatida siz har bir IEP jamoasi yig‘ilishi haqida xabardor qilinish va unda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lish huquqiga egasiz. Ta’lim muassasasi sizning yig‘ilishda qatnasha olishingizni ta’minlash hamda yig‘ilishni tomonlar bilan o‘zaro kelishilgan vaqt va joyda o‘tkazishni rejalashtirish uchun, sizni yetarlicha oldindan xabardor qilishi shart.

Ta’limga oid qaydnomalar

Qaydnomalardan foydalanish imkoniyati mavjudligi

Oilaning ta’lim olish huquqlari va ma’lumotlar daxlsizligi to‘g‘risidagi qonun (Family Educational Rights and Privacy Act (FERPA)) — bu federal qonun bo‘lib, u sizga farzandlaringizning ta’limiga oid qaydnomalarni o‘rganib chiqish va ko‘rib chiqish huquqlarini beradi. FERPA qonuni doirasidagi huquqlaringiz farzandingiz 18 yoshga to‘lganida yoki oliy o‘quv yurtida (masalan, kollej yoki universitetda) o‘qishni boshlaganida — qaysi biri birinchi sodir bo‘lsa — sizdan unga o‘tadi.

TA’LIMGA OID QAYDNOMALAR NIMA?

O‘quvchi haqidagi muayyan ma’lumot FERPA qonuni bilan himoyalangan yoki himoyalanmaganligi ushbu ma’lumot “ta’limga oid qaydnoma” tushunchasiga mos kelish-kelmasligiga bog‘liq. FERPA qonuni ta’limga oid qaydnomalarni quyidagicha belgilaydi:

1. Bevosita muayyan bir o‘quvchiga tegishli bo‘lgan qaydnomalar; maktablar ba’zan bunday ma’lumotlarni shaxsni aniqlashtiruvchi ma’lumotlar deb ataydi.
2. Ta’lim muassasasi yoki tashkiloti (masalan, maktab okrugingiz) tomonidan yoki uning vazifasini bajaruvchi tomon tarafidan saqlanadigan qaydnomalar.

SHAXSNI ANIQLASHTIRUVCHI MA’LUMOTLARGA QUYIDAGILAR KIRADI:

- Farzandingizning ismi
- Oilangiz a’zosining ismi
- Farzandingizning manzili yoki oilangiz a’zosining manzili
- Shaxsni tasdiqlovchi hujjat, masalan, farzandingizning ijtimoiy sug‘urta raqami, talaba raqami yoki biometrik yozuvlar
- Farzandingizning shaxsini tasdiqlashning boshqa bilvosita usullari, masalan, tug‘ilgan sana, tug‘ilgan joy, onasining qizlik familiyasi, irqi yoki etnik kelib chiqishi
- Alohida yoki boshqa ma’lumotlar bilan birgalikda muayyan o‘quvchiga bog‘langan yoki bog‘lanishi mumkin bo‘lgan va tegishli holatlar haqida shaxsiy ma’lumotga ega bo‘lmagan maktab jamoasidagi sog‘lom fikrlovchi shaxsga o‘quvchining shaxsini yetarlicha oqilona ishonch bilan aniqlash imkonini beradigan boshqa ma’lumotlar
- Maktab farzandingizning shaxsini biladi deb hisoblagan shaxs tomonidan so‘ralgan ma’lumotlar.
- FERPA’da belgilangan boshqa misollar

QAYDNOMALARNI SAQLASH VA MAXFIYLIGINI TA’MINLASH

Ta’limga oid qaydnomalar turli shakllarda saqlanishi mumkin. Ba’zi misollar:

- Qo‘lda yozilgan
- Bosma shakldagi
- Kompyuter ichida
- Video yoki audio tasmalarda
- Kinoplyonka, mikrofilm yoki mikrofishada

Talabaga oid qaydnomalar maxfiy, ya’ni *dahlsiz*hisoblanadi. Ta’lim muassasasi farzandingizning qaydnomalarini yig‘ish, saqlash, boshqalarga taqdim etish yoki yo‘q qilish vaqtida ularning dahlsizligini himoya qilishi shart.

FARZANDINGIZ QAYDNOMALARINI KO‘RIB CHIQISH

Ta’lim muassasasi sizga farzandingizning ta’limiga oid qaydnomalarni ortiqcha kechiktirmasdan, shuningdek, siz ishtirok etadigan har qanday IEP jamoaviy yig‘ilishidan yoki tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasidan oldin ko‘rib chiqish imkonini berishi lozim. Ta’lim muassasasi sizning so‘rovingiz berilgan kundan boshlab qaydnomalarni ko‘rishingizga imkon berishni 45 kundan ortiq uzaytira olmaydi.

Siz faqat qaydnomadagi *farzandingizga* oid ma’lumotlarni ko‘rib chiqish huquqiga egasiz. Siz maktabdan farzandingiz qaydnomalariga tushuntirish berishni so‘rash huquqiga egasiz. Sizning nomingizdan ish yuritadigan boshqa shaxsga (masalan, do‘stingiz yoki advokatingizga) qaydnomalarni ko‘rib chiqishni topshirish huquqiga egasiz.

Ta’lim muassasasi sizga farzandingiz qaydnomalarining nusxalarini berishi mumkin, biroq sizga nusxalarni bermaslik qaydnomalarni ko‘rib chiqish huquqingizdan foydalanishingizga to‘sqinlik qilsa, ta’lim muassasasi sizga nusxalarni taqdim etishi shart bo‘ladi. Siz har doim qaydnomalarning nusxalarini o‘z hisobingizdan olish huquqiga egasiz.

TA’LIMGA OID QAYDNOMALARGA O‘ZGARTIRISH KIRITISH

Siz ta’lim muassasasidan farzandingizning ta’lim qaydnomalaridagi noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlarni o‘zgartirishni so‘rash huquqiga egasiz. Maktab ta’limga oid qaydnomalarni sizning so‘rovingizga asosan (shunchaki so‘raganingiz uchun) o‘zgartirishga majbur emas, ammo maktab sizning so‘rovingizni *ko'rib chiqishi* shart. Agar maktab qaydnomani siz so‘ragandek o‘zgartirmaslikka qaror qilsa, bu masalani muhokama qilish uchun sudya muhokamasini talab qilish huquqingiz borligini sizga bildirishi shart.

Agar sudya muhokamasidan keyin ham maktab qaydnomani o‘zgartirmaslikka qaror qilsa, siz ushbu masala bo‘yicha o‘z bayonotingizni farzandingizning ta’lim qaydnomasiga qo‘shish huquqiga egasiz. Bu bayonot hamisha farzandingiz qaydnomalarining bir qismi sifatida saqlab borilishi shart.

TA’LIMGA OID QAYDNOMALARNI ULASHISH

Odatda, ta'lim muassasasi farzandingiz shaxsini aniqlash imkonini beradigan ta’lim qaydnomalarini sizdan boshqa shaxs bilan baham ko‘rmoqchi bo‘lsa, sizning yozma ruxsatingizni *olishi shart* . Biroq, ayrim holatlarda sizning ruxsatingiz talab qilinmaydi. Ta’lim muassasasi farzandingizning ta’lim qaydnomalarini sizning yozma *ruxsatingizsiz* ta’limga oid qaydnomalarni qachon ulashishi mumkinligi haqida batafsil ma’lumot olish uchun AQSh Ta’lim Departamentining www.ed.gov .veb-saytidagiFERPA qonunining ota-onalar uchun umumiy qo‘llanmasiga qarang.

Nizolarni hal qilish

Nizolarni hal qilish jarayoni

Agar nogironligi bo‘lgan farzandingizning ta’limidan xavotirda bo‘lsangiz, birinchi navbatda ta’lim muassasangiz bilan hamkorlik qilishingiz lozim. Boshlanishiga, o‘quvchingizning o‘qituvchisi yoki maxsus ta’lim direktori bilan bog‘laning. U kishiga o‘zingizni nima tashvishga solayotganini ayting. Agar siz va ta’lim muassasasi sizni tashvishga solayotgan masala bo‘yicha bir fikrga kelmasangiz, muammoni birgalikda hal qilishning turli usullari mavjud.

Ushbu jarayonlarning ta’lim muassasangiz foydalanishi mumkin bo‘lgan rasmiy nomlari mavjud, ammo ushbu qo‘llanma sizga bu nomlar nimani anglatishini hamda siz va maktab farzandingizga qanday yordam berishingiz mumkinligini tushunishga yordam beradi. Keyingi bo‘limda ta’lim muassasangiz bilan hamkorlik qilish uchun foydalanishingiz mumkin bo‘lgan ushbu jarayonlar yoki usullar tavsiflanadi.

MA’MURIY BOSHQARUV DARAJASIDA KO‘RIB CHIQISH

Agar ta’lim muassasangizning nogironligi bo‘lgan farzandingiz ta’limiga oid qaroriga norozi bo‘lsangiz, muassasa ma’muriyatiga shikoyat berishingiz mumkin. Bunga javoban ta’lim muassasasi bosh inspektori (yoki uning tayinlangan vakili) ma’muriy boshqaruv darajasida ko‘rib chiqishni amalga oshiradi. Ushbu ko‘rib chiqish ma’muriy sudya muhokamasini ham o‘z ichiga olishi mumkin.

Ko‘rib chiqish va ma’muriy sudya muhokamasi, agar u amaliyotda o‘tkazilsa, barcha majburiy ishtirokchilar uchun qulay bo‘lgan vaqt va joyda o‘tkazilishi lozim. Siz ham, ta’lim muassasasi ham, ko‘rib chiqish tadbiri yoki ma’muriy sudya muhokamasida ishtirok etish uchun boshqa shaxslarni taklif qilishlaringiz mumkin. Masalan, siz boshqa oila a’zolaringizni yoki do‘stingizni, maxsus ta’lim bo‘yicha bilimga ega bo‘lgan biron shaxsni yoki advokatni taklif qilishingiz mumkin. Agar farzandingiz okrugning rivojlanish nuqsonlari bo‘lgan shaxslar bo‘yicha kengashi yoki boshqa davlat ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshiriladigan dasturda ta’lim olayotgan bo‘lsa, ta’lim muassasasi ma’muriy boshqaruv darajasida ko‘rib chiqish uchun ushbu kengash yoki davlat muassasasi bilan maslahatlashishi shart.

Vaziyatni ko‘rib chiqishda, farzandingizning ta’limiga oid kelishmovchilikni hal qilish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanilish lozim. Ta’lim muassasasi bosh inspektori (yoki uning tayinlangan vakili) kelishmovchilikning har ikki tomonini tinglaydi va qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilingach, ta’lim muassasasi bosh inspektori qaror haqida sizni yozma ravishda xabardor qilishi lozim. Bu siz ta’lim muassasasiga o‘z tashvishingiz haqida birinchi marta xabar bergan kundan boshlab 20 kun ichida amalga oshirilishi kerak.

SINAB KO‘RISHINGIZ MUMKIN BO‘LGAN QO‘SHIMCHA JARAYONLAR

Agar siz ushbu jarayonni yakunlagan bo‘lsangiz hamda siz va ta’lim muassasasi muammoni qanday hal qilish borasida hali ham kelisha olmagan bo‘lsalaringiz, sinab ko‘rishingiz mumkin bo‘lgan boshqa ko‘plab jarayonlar ham mavjud. Ma’muriy ko‘rib chiqishni boshqa nizolarni hal qilish jarayonlariga o‘tishdan oldin so‘rash majburiy bo‘lmasa-da, buni amalga oshirish tavsiya etiladi.
Muammoni hal qilish uchun foydalanishingiz mumkin bo‘lgan qo‘shimcha imkoniyatlar mavjud. ODEW departmentining Alohida ehtiyojli bolalar boshqarmasi (OEC) jarayonga qo‘shilishi va tashvishlaringizni hal qilishga yordam beradigan qo‘shimcha vositalardan foydalanish haqidagi so‘rovingiz bo‘yicha sizga yordam berishi mumkin. Quyidagi tashkilotlar ham sizga yordam berishi mumkin:

- Sizning mahalliy Shtat qo‘llab-quvvatlash guruhingiz (State Support Team (SST)) (Hudud № _____) (telefon raqami: №_____). Siz bilan Shtat qo‘llab-quvvatlash guruhidagi ota-ona va oilaviy masalalar bo‘yicha maslahatchi birgalikda ishlaydi.
- Agar ta’lim muassasangizda mavjud bo‘lsa, mahalliy ota-onalar murabbiysi.

- Ota-onalar murabbiysi nogironligi bo‘lgan bolaning oilalariga hamda ta’lim muassasalariga ma’lumot va yordam beradi. Ota-onalar murabbiysi ta’lim muassasasining xodimi bo‘lib, ayni paytda nogironligi bo‘lgan bolaning ota-onasi hamdir.
- Qo‘shimcha ma’lumot olish uchun_____bilan bog‘laning.

- Ohio shtatida nogironligi bo‘lgan bolalarni ta’lim bilan ta’minlash koalitsiyasi (Ohio Coalition for the Education of Children with Disabilities (OCECD))
  - OCECD — Ohio shtatidagi go‘daklar, kichik yoshdagi bolalar, bolalar va nogironligi bo‘lgan yoshlarning oilalariga, shuningdek, ularga xizmat ko‘rsatuvchi pedagoglar va tashkilotlarga xizmat ko‘rsatadigan shtat miqyosidagi notijorat tashkilotdir. OCECD dasturlari ota-onalarga ta’limning barcha sharoitlarida o‘z farzandlarining huquq va manfaatlarini yaxshi biladigan hamda ularni samarali himoya qila oladigan vakil bo‘lishlariga yordam beradi.

Qo‘shimcha ma’lumot uchun OCECDga (740) 382-5452 raqami orqali murojaat qiling yoki OCECD veb-saytiga www.ocecd.orgmanzili orqali tashrif buyuring.

Shikoyatlarni erta bosqichda hal etish

Shikoyatlarni erta bosqichda hal etish – bu ta’lim muassasasi bilan o‘rtangizdagi tafovutlarni hal qilishning boshqa variantlaridan foydalanishni boshlashingizdan oldin, ularni odatda norasmiy yo‘l bilan hal qilishga urinishingizdir. ODEW departmentining OEC boshqarmasidan biror xodim siz bilan birga ishlab, farzandingizning ta’limiga oid savollaringiz va tashvishlaringizni hal qilishga yordam beradi.

ODEW departmenti yozma shikoyat keltirish yoki tegishli huquqiy jarayon doirasida sud muhokamalarini chaqirish kabi yanada rasmiyroq jarayonlar o‘tkazilishini so‘rashingizdan oldin Shikoyatlarni erta bosqichda hal qilish usulidan foydalanishingizni tavsiya qiladi. Farzandingizning ta’limiga oid savollaringiz va tashvishlaringizni hal qilishda yordam olish uchun, ODEW departmentining OEC boshqarmasidagi xodim bilan bog‘lanishingiz mumkin. Erta bosqichda shikoyatni hal qilish haqida kim bilandir gaplashish uchun Departament bilan quyidagi usullardan biri orqali bog‘laning:

- Telefon orqali: (614) 466-2650 yoki bepul raqam orqali (877) 644-6338
- Elektron pochta orqali: exceptionalchildren@education.ohio.gov

Fasilitatsiya (ko‘maklashish)

Agar farzandingizni maxsus ta’limga yo‘naltirish uchun o‘tkaziladigan baholash yoki qayta baholashdan yoxud farzandingizning Individuallashtirilgan ta’lim dasturi (IEP)dan xavotirda bo‘lsangiz, siz uchun fasilitatsiya (ko‘maklashish) deb nomlanuvchi variant foydali bo‘lishi mumkin.

Fasilitatsiya xizmati — bu siz Departamentdan farzandingizni baholash guruhi yoki IEP guruhi yig‘ilishlarida fasilitator ishtirok etishini tashkillashtirib berishni so‘rashingizdir (siz ham ushbu guruhning a’zosisiz). Ta’lim muassasasi ham Departamentga farzandingizning maxsus ta’limiga oid ushbu yig‘ilishlardan birida fasilitator ishtirok etishini so‘rab ariza yuborishi mumkin. Yig‘ilishda fasilitator ishtirok etishiga siz ham, ta’lim muassasasi ham, rozi bo‘lishlaringiz shart.

FASILITATSIYA XIZMATIDAN MAQSAD

Fasilitatsiya jamoaviy yig‘ilishlarda, masalan, IEP guruhi yig‘ilishida, baholashni rejalashtirish yig‘ilishida yoki baholash guruhi yig‘ilishida amalga oshiriladi. Fasilitator — bu guruh a’zosi bo‘lmagan va guruh nomidan qaror qabul qilmaydigan betaraf uchinchi tomon hisoblanadi. Fasilitatorning ishtiroki guruhga samarali ishlashga va diqqat-e’tiborni o‘quvchiga qaratib turishga yordam beradi. Fasilitatorlar — OEC boshqarmasi tomonidan maxsus ta’lim jarayonlari bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tkazilgan professional vositachilardir.

Siz istalgan vaqtda fasilitatsiya xizmati ko‘rsatilishini so‘rashingiz mumkin. So‘rov berganingizdan so‘ng, siz ham, ta’lim muassasasi ham ushbu jarayonda ishtirok etishga rozi bo‘lishingiz kerak. Agar ikkalangiz ham rozi bo‘lsangiz, OEC boshqarmasi siz uchun fasilitator tayinlaydi. Fasilitatsiya xizmati uchun sizdan ham, ta’lim muassasasidan ham, haq olinmaydi.

FASILITATOR:

- Betaraf uchinchi tomon sifatida qoladi (hech bir tarafni olmaydi va siz yoki ta’lim muassasasi uchun ishlamaydi)
- Professional tayyorgarlikdan o‘tgan *vositachi* (nizolarni hal qilishga yordam beradigan malakali shaxs) hisoblanadi
- Maxsus ta’limga oid qonunlar va talablar bo‘yicha tayyorgarlikdan o‘tgan va ularni biladi
- Farzandingizning IEP yoki baholash guruhining a’zosi emas
- Qaror qabul qilmaydi, balki guruhga yechim topishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi
- Siz bilan ta’lim muassasasi o‘rtasida muloqot boshlanishiga yordam beradi
- Yig‘ilishning belgilangan tartibda davom etishini ta’minlaydi va barcha ishtirokchilarga jarayonga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga yordam beradi
- Guruhning farzandingiz va uning ehtiyojlariga e’tiborini qaratib turadi

FASILITATSIYA XIZMATI HAQIDA ESLAB QOLISH KERAK BO‘LGAN ASOSIY JIHATLAR:

- Fasilitatsiya ixtiyoriy hisoblanadi.
  - Siz ham, ta’lim muassasasi ham, ushbu jarayonning bir qismi bo‘lishga rozi bo‘lishlaringiz shart. Agar siz va ta’lim muassasasi yig‘ilishda fasilitator ishtirok etishiga rozi bo‘lsangiz, bu siz yig‘ilishda ta’lim muassasasining taklifiga yoki yig‘ilish qanday yakunlanishiga rozilik bildirishingiz shart, degani emas. Ota-onalar har doim o‘z fikriga ega bo‘lish huquqiga ega.
- Fasilitatsiyaga oid yig‘ilishda erishilgan har qanday kelishuv odatda majburiy kuchga ega. Bu shuni anglatadiki, qaror o‘zaro kelishilganidan so‘ng, siz ham, ta’lim muassasasi ham ushbu kelishuvga amal qilishingiz kerak.
  - Siz va ta’lim muassasasi farzandingizning baholashi yoki IEPi bo‘yicha imzolagan har qanday hujjat boshqa IEP yoki baholash guruhi yig‘ilishlarida imzolangan hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega.

Fasilitatsiya xizmati haqida qo‘shimcha ma’lumot olish uchun ODEW departmentining veb-saytiga education.ohio.gov manzili orqali tashrif buyuring va ***“facilitation”***so‘zini qidiring.

Fasilitatsiya xizmatini so‘rash uchun

Ta’lim muassasangizning maxsus ta’lim bo‘yicha direktori bilan bog‘lanib, maktab okrugining ushbu jarayonda ishtirok etishni xohlash-xohlamasligini bilib oling:_____.
Har ikki tomon fasilitatsiya jarayonida ishtirok etishga rozi bo‘lgach, ODEW departmentining OEC boshqarmasii bilan bog‘laning:

- Telefon orqali: (877) 644-6338
- Elektron pochta orqali: OECMediationFacilitation@education.ohio.gov

Vositachilik

Vositachilik — bu siz va ta’lim muassasasi nogironligi bo‘lgan yoki nogironligi bor deb *gumon qilinayotgan* farzandingizning ta’limi bo‘yicha kelishuvga erishishga yordam beruvchi yig‘ilishga professional uchinchi tomon kelishiga o‘zaro rozi bo‘ladigan jarayon. Uchinchi tomon degani, vositachi deb ataladigan ushbu shaxs hech bir tarafni olmaydi hamda ota-ona yoki ta’lim muassasasi uchun ishlamaydi va ularning nomidan harakat qilmaydi. Vositachilik farzandingizning maxsus ta’limiga oid kelishmovchilik yuzaga kelgan istalgan vaqtda siz va ta’lim muassasasi foydalanishingiz mumkin bo‘lgan imkoniyatlardan biridir.

VOSITACHILIK BEPUL VA UNI ISTALGAN VAQTDA SO‘RASH MUMKIN

Vositachilikni istalgan vaqtda so‘rash mumkin. Vositachilik so‘ralgandan so‘ng, siz ham, ta’lim muassasasi ham ushbu jarayonda ishtirok etishga rozi bo‘lishingiz kerak. Agar siz ham, ta’lim muassasasi ham ishtirok etishga rozi bo‘lsangiz, OEC boshqarmasi siz uchun vositachi tayinlaydi. Vositachi farzandingizning maxsus ta’limiga oid muammoni qanday hal qilishingiz kerakligini sizga ayta olmaydi. Aksincha, vositachi har ikki tomonga farzandingiz bilan bog‘liq tashvishlarni muhokama qilishga va yechim topishga yordam beradi.

Agar siz rasmiy shikoyat berishga yoki tegishli huquqiy jarayon doirasida sud muhokamasini so‘rashga qaror qilsangiz (17-28-betlar), ODEW departmenti sizdan birinchi qadam sifatida vositachilik variantini ko‘rib chiqishingizni so‘raydi. Vositachilik uchun sizdan ham, ta’lim muassasasidan ham haq olinmaydi.

Vositachilik so‘rovi	Vositachining tayinlanishi va uchrashuvni belgilash	Vositachilik uchrashuvi	Kelishuvga erishildi	Kelishuvga erishilmadi
Siz yoki maktab okrugi istalgan vaqtda Ohayo (Ohio) shtati ta’lim va kadrlar departamenti (Ohio Department of Education and Workforce (ODEW))’dan vositachilikni so‘rashingiz mumkin. Agar siz shikoyat arizasini bersangiz yoki tegishli huquqiy jarayon doirasida sudya muhokamasini so‘rasangiz, departament birinchi bosqich sifatida vositachilikni taklif qiladi. Siz ham, maktab okrugi ham, vositachidan foydalanishga rozi bo‘lishlaringiz shart.	Vositachi xolis uchinchi tomon hisoblanadi. Vositachi imkon qadar tezroq uchrashuv belgilaydi. Vositachi xizmat haqini departament to‘laydi.	Siz va maktab okrugi o‘z xavotirlaringizni bildirasizlar. Vositachi nizoni hal qilishga va yakuniy, yozma kelishuvga kelishga yordam berishga harakat qiladi. Odatda, vositachilik jarayonida aytilgan biron bir narsa, istisno holat mavjud bo‘lmasa, uchrashuvdan tashqarida oshkor qilinishi yoki keyingi huquqiy jarayonlarda ishlatilishi mumkin emas.	Yozma kelishuv majburiy kuchga ega bo‘ladi va uni siz ham, maktab okrugi ham imzolaydi. Majburiy kuchga ega degani — siz ham, maktab ham, ushbu kelishuv shartlariga rioya qilishlaringiz shart, shuningdek, sud uning ijrosini majburiy tarzda ta’minlashi mumkin.	Agar vositachilik jarayonida kelishuvga erishilmasa va siz shtat bosqichida shikoyat arizasi bergan bo‘lsangiz, shikoyatni Istisno toifadagi bolalar bo‘yicha bo‘lim (Office of Exception Children (OEC)) hal qiladi. Agar vositachilik jarayonida kelishuvga erishilmasa va siz ishni tegishli huquqiy jarayon doirasida ko‘rish arizasini bergan bo‘lsangiz, keyingi bosqich – tegishli huquqiy jarayon doirasida sudya muhokamasi bo‘ladi.

VOSITACHI:

- Betaraf uchinchi tomon sifatida qoladi (hech bir tarafni olmaydi va siz yoki ta’lim muassasasi uchun ishlamaydi)

- Qaror qabul qilishiga ruxsat berilmaydi; aksincha, vositachi siz va ta’lim muassasasiga farzandingizning ta’limiga oid muammoni hal qilishda yordam beradi.
- Siz va ta’lim muassasasi bilan birgalikda yozma vositachilik kelishuviga kelish uchun ishlaydi
- Vositachilik yig‘ilishining belgilangan tartibda davom etishini ta’minlaydi va barcha ishtirokchilarga jarayonga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga yordam beradi.
- Hamma ishtirokchilarni o‘quvchiga va o‘quvchining ehtiyojlariga qaratilgan holda ushlab turadi.
- Siz va ta’lim muassasasi o‘rtasida muloqot boshlanishiga yordam beradi.

VOSITACHILIK HAQIDA ESDA TUTISH KERAK BO‘LGAN MUHIM JIHATLAR

- Vositachilik ixtiyoriydir.
    - Siz ham, ta’lim muassasasi ham, ushbu jarayonning bir qismi bo‘lishga rozi bo‘lishlaringiz shart. Agar siz va ta’lim muassasasi vositachilikda ishtirok etishga rozi bo‘lsangiz, bu yig‘ilishda ta’lim muassasasining fikriga qo‘shilishingiz yoki yig‘ilish qanday yakunlanganiga rozi bo‘lishingiz kerak degani emas.
- Vositachilik maxfiydir.
    - Vositachilik yig‘ilishida aytilgan barcha gaplar, odatda, maxfiy (shaxsiy) bo‘lib qoladi va istisno holatlar mavjud bo‘lmasa, keyinchalik ulardan foydalanish mumkin emas.
- Vositachilik davomida tuzilgan har qanday yozma kelishuv, odatda, majburiy hisoblanadi. Bu siz ham, ta’lim muassasasi ham o‘zaro qaror qabul qilingandan so‘ng yozma kelishuvga rioya qilishi kerakligini anglatadi.
    - Siz va ta’lim muassasasi farzandingizning baholashi yoki IEP bo‘yicha imzolagan har qanday hujjat boshqa IEP yoki baholash guruhi yig‘ilishlarida imzolangan hujjatlar bilan bir xil yuridik kuchga ega.

Vositachilikni so‘rash uchun

Maktab okrugingizning maxsus ta’lim bo‘yicha direktoriga murojaat qilib, okrug ushbu jarayonda ishtirok etishga tayyormi-yo‘qmi, aniqlang:_____. Har ikki tomon vositachilikda ishtirok etishga rozi bo‘lgach, ODEW departmentining OEC boshqarmasiga murojaat qiling:

- Telefon orqali: (877) 644-6338
- Elektron pochta orqali: OECMediationFacilitation@education.ohio.gov

Shtat darajasida shikoyat keltirish

Agar farzandingizning maxsus ta’limi bilan bog‘liq tashvishingiz bo‘lsa, sizda mavjud bo‘lgan yana bir variant — ta’lim muassasasiga qarshi rasmiy shtat darajasidagi shikoyatini yozma shaklda tuzish va uni ODEW departmentining OEC boshqarmasiga topshirishdir.

SHTAT DARAJASIDA SHIKOYAT KELTIRISH UCHUN HECH QANDAY TO‘LOV OLINMAYDI

Shtat darajasida shikoyat keltirish uchun hech qanday to‘lov olinmaydi. Shtat darajasidagi shikoyatni ko‘rib chiqish jarayoni, odatda, muammoni tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasiga qaraganda tezroq hal qilishga yordam beradi va tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasiga qaraganda kamroq qarama-qarshilikka asoslangan bo‘ladi. Shtat darajasidagi shikoyatini berish uchun siz imzolangan yozma shikoyatingizning asl nusxasini OEC boshqarmasiga yuborishingiz va shikoyatning bir *nusxasini* bevosita ta’lim muassasasiga yuborishingiz shart bo‘ladi.

Shikoyatingizda federal yoki shtatning maxsus ta’limga oid talablari buzilganligi haqidagi da’vo bayonoti bo‘lishi kerak (ya’ni, Nogironligi bo‘lgan shaxslar ta’limi to‘g‘risidagi qonun — IDEA yoki Nogironligi bo‘lgan bolalarni ta’lim bilan ta’minlash bo‘yicha Ohio Operatsion Standartlari buzilganligi haqidagi da’vo).

Nogironligi bo‘lgan bolalarni ta’lim qilish uchun operatsion standartlar). Shikoyatda muayyan qonunning nomi yoki unga havola keltirilishi shart emas. Biroq, unda ta’lim muassasasi tomonidan amalga oshirilgan yoki amalga oshirilmagan va sizning fikringizcha, maxsus ta’lim talabining buzilishiga olib kelgan aniq harakat yoki harakatsizlik ko‘rsatilishi kerak. Shuningdek, ta’lim muassasasi maxsus ta’lim talabini buzgan deb hisoblash uchun asos bo‘layotgan faktlarni ham keltirishingiz kerak.

DAVLAT SHIKOYATINI KO‘RIB CHIQISH

OEC boshqarmasi tegishli tartibda berilgan shikoyatni ko‘rib chiqadi va zarur bo‘lsa, tekshiruv o‘tkazadi hamda ta’lim muassasasi farzandingizning ta’limiga oid maxsus ta’lim talablarini buzgan yoki buzmaganligini aniqlaydi. Shuningdek, uchinchi tomon, ya’ni sizdan boshqa shaxs yoki ta’lim muassasasidan boshqa agentlik yoki tashkilot — ta’lim muassasasi o‘quvchiga oid maxsus ta’lim talablarini buzgan deb hisoblasa, Departamentga davlat shikoyatini berishi mumkin.

Davlat shikoyati taxmin qilinayotgan maxsus ta’lim buzilishi sodir bo‘lgan kundan boshlab *bir* yil ichida Departamentga berilishi mumkin. Shikoyat berilgan sanadan bir yildan oldin sodir bo‘lgan buzilishlar haqida berilgan shikoyatlar tekshirilmaydi va ular bo‘yicha masala hal etilmaydi.

RASMIY DAVLAT SHIKOYATINI QANDAY BERISH KERAK

Agar maxsus ta’lim bo‘yicha rasmiy davlat shikoyatini bermoqchi bo‘lsangiz, quyidagilardan birini bajarishingiz kerak:

- DEW nizolarni hal qilish veb-sahifasidasdavlat shikoyati shaklini to‘ldiring; yoki
- Shikoyat xatini yozib, Departamentga pochta yoki elektron pochta orqali yuboring; yoki
- Departamentning OEC boshqarmasi xodimlariga 1-877-644-6338 raqamiga qo‘ng‘iroq qilib, shikoyat shaklini so‘rang, siz uni to‘ldirib, Departamentga qaytarishingiz lozim.

Davlat shikoyatiga kiritilishi shart bo‘lgan ma’lumotlar ro‘yxati

- Ta’lim muassasasi federal yoki shtatning maxsus ta’limga oid talablarini buzganligi haqidagi bayonot
- Muammoning tavsifi, jumladan, shikoyatingizga asos bo‘layotgan faktlar
- Sizning aloqa ma’lumotlaringiz va asl imzoingiz
- Agar shikoyat muayyan o‘quvchiga oid maxsus ta’lim talabi buzilganligi haqida bo‘lsa
- O‘quvchining ismi va yashash manzili
- O‘quvchi tahsil olayotgan maktab nomi
- Agar gap McKinney-Vento Uysizlarga yordam to‘g‘risidagi qonunda belgilangan uysiz bola yoki yosh haqida ketsa, o‘quvchining mavjud aloqa ma’lumotlari va u tahsil olayotgan maktab nomi
- Muammoning mohiyati, jumladan, muammo bilan bog‘liq faktlarning tavsifi
- Shikoyat berilayotgan vaqtda ma’lum bo‘lgan va mavjud bo‘lgan darajada, muammoni hal qilish bo‘yicha taklif etilayotgan yechim
- Shikoyatda imzo bo‘lishi shart

Eslatma: anonim shikoyatlar qabul qilinmaydi

SHIKOYATINGIZNI QAYERGA YUBORISH KERAK

Shikoyatingiz bir vaqtning o‘zida *ham* ODEW departmentining OEC boshqarmasiga, ham ta’lim muassasasining bosh inspektoriga yuborilishi lozim.

Asl shikoyatni quyidagi manzilga yuboring:
ODEW departmentining OEC boshqarmasi, Nizolarni hal qilish bo‘limi yordamchi administratori e'tiboriga
25 South Front Street, Mail Stop 409
Columbus, Ohio 43215-4183
Elektron pochta orqali: oeccomplaints@education.ohio.gov

SHIKOYATNI VAQTINCHA TO‘XTATIB TURISH

Shikoyatni vaqtincha to‘xtatib turish-davlat shikoyatida ko‘tarilgan masalalarni vaqtincha ko‘rib chiqmay turish, ya’ni jarayonni vaqtincha to‘xtatib turish degani. Agar siz va ta’lim muassasasi tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasi jarayonida ishtirok etayotgan bo‘lsangiz va siz yoki ta’lim muassasasi ayni masalalar bo‘yicha davlat shikoyatini ham bersangiz, ODEW departmenti davlat shikoyatini vaqtincha to‘xtatib turadi. Boshqacha aytganda, Departament shtat darajasidagi shikoyatingizni hal qilishdan oldin tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasi jarayoni yakunlanishini kutadi. Agar siz tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasi haqidagi so‘rovingizni qaytarib olsangiz, Departament davlat shikoyatini vaqtincha to‘xtatib turish holatidan chiqaradi va shikoyatingizni hal qilish jarayonini davom ettiradi.

Agar tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasi o‘tkazilsa va Xolis sud muhokamasi xodimi (Impartial Hearing Officer (IHO)) tomonidan qaror chiqarilsa, Departament davlat shikoyatini vaqtincha to‘xtatib turish holatidan chiqaradi va uni faqat shikoyatingizda sud muhokamasi xodimi tomonidan hal qilinmagan masalalar qolgan taqdirdagina ko‘rib chiqadi.

DAVLAT SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISH JARAYONI

Departament davlat shikoyatingizni qabul qilgach, agar shikoyat tegishli tartibda berilgan bo‘lsa, uni ko‘rib chiqishni boshlaydi va zarur bo‘lganda maxsus ta’lim talablarining buzilganligi haqidagi da’volarni tekshiradi. OEC boshqarmasi shikoyatingizni uni qabul qilgan kundan boshlab 60 kalendar kuni ichida hal qilishi shart.

Shikoyatni ko‘rib chiqish jarayonining doirasida, OEC boshqarmasi:

- Shikoyatingizni ko‘rib chiqadi va undagi da’volarni hal qilish vakolatiga ega yoki ega emasligini aniqlaydi
- Sizga va ta’lim muassasasiga qaysi da’volarni, jumladan, zarur bo‘lsa, qaysi da’volar bo‘yicha tekshiruv o‘tkazilishini yozma ravishda bildiradi
- Shikoyatni hal qilishning muqobil usuli sifatida sizga ham, ta’lim muassasasiga ham vositachilik yoki ko‘maklashishni taklif qiladi
- Shikoyatingizdagi da’volar bo‘yicha sizdan va ta’lim muassasasidan zarur bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlarni so‘raydi
- Qo‘shimcha hujjatlar va siz hamda ta’lim muassasasi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarni ko‘rib chiqish, telefon orqali suhbatlar o‘tkazish va zarur deb topilganda farzandingizning ta’lim muassasasiga tashrif buyurish.
- Ta’lim muassasasiga sizning shikoyatingizga javob berish va muammoni hal qilish yo‘lini taklif qilish imkoniyatini berish.
- Tekshiruv va zarur bo‘lsa, tergov yakunlangach, shuningdek shikoyatni qabul qilgan kundan boshlab 60 kalendar kundan kechiktirmay, maxsus ta’lim sohasida qoidabuzarlik sodir bo‘lgan yoki bo‘lmaganligi to‘g‘risidagi qarori haqida sizga va ta’lim muassasasiga xat yuborish.

MUDDATNI UZAYTIRISH

Agar muddat uzaytirilsa, Departament shikoyatni ko‘rib chiqish va o‘z qarori bayon etilgan xatni yuborish uchun 60 kundan ortiq vaqt olishi mumkin. Davlat shikoyatini ko‘rib chiqish uchun belgilangan 60 kunlik muddat quyidagi hollarda uzaytirilishi mumkin:

- Siz va ta’lim muassasasi muammoni vositachilik, fasilitatsiya yoki nizolarni muqobil hal qilishning boshqa usuli orqali hal qilishga urinib ko‘rish uchun qo‘shimcha vaqt berilishiga rozi bo‘lsangiz; yoki
- Alohida holatlar mavjud bo‘lsa (bular OEC boshqarmasi tomonidan har bir ish bo‘yicha alohida belgilanadi).

SHIKOYATNI NOTO‘G‘RI RASMIYLASHTIRISH

Agar OEC boshqarmasi siz shikoyatni to‘g‘ri rasmiylashtirmaganingizni, ya’ni hal qilinishini istayotgan masala bo‘yicha barcha zarur ma’lumotlarni kiritmaganingizni aniqlasa yoki OEC boshqarmasi shikoyatni tekshirish vakolatiga ega bo‘lmasa, ular sizga xat yuboradi, ushbu xatda shikoyatingizni ko‘rib chiqishni davom ettirmaslik sababi, ushbu qarorning asosi va, agar tegishli bo‘lsa, yangi shikoyat to‘g‘ri rasmiylashtirilgan deb hisoblanishi uchun kiritishingiz kerak bo‘lgan ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

SHIKOYATNI QAYTA TOPSHIRISH

Agar shikoyatni yangi ma’lumotlar bilan qayta topshirayotgan bo‘lsangiz, shikoyatni taxmin qilinayotgan maxsus ta’lim sohasidagi qoidabuzarlik sodir bo‘lgan kundan boshlab bir yil ichida ODEW departmenti hamda ta’lim muassasasiga yuborganingizga ishonch hosil qiling. Agar shikoyatingizda Departament hal qilish vakolatiga ega bo‘lmagan masalalarni ham kiritgan bo‘lsangiz, Departament tegishli hollarda ushbu masalalarni hal qilish uchun zarur resurslarga yo‘naltiradi.

Shikoyat arizasini berish

- Shikoyat da’vo qilinayotgan huquqbuzarlik sodir bo‘lganidan keyin bir yil ichida berilgan.
- Ota-ona shikoyatning asl nusxasini ODEW departmentiga, nusxasini esa ta’lim muassasasiga taqdim etadi.
- Shikoyatda maxsus ta’limga oid talablarning buzilgani va buni tasdiqlovchi faktlar ko‘rsatiladi.

ODEW departmenti shikoyatlarni ko‘rib chiqadi

Departament shikoyat bergan shaxsga va ta’lim muassasasiga shikoyat qabul qilinganligi tasdiqlovchi xat yuboradi.

Departament shikoyat arizasi tegishli tarzda berilmagan yoki o‘zi uni hal etish vakolatiga ega bo‘lmagan taqdirda, ma’lumotlar to‘liq emasligi to‘g‘risida xat yuboradi.

Ko‘rib chiqish

Departament barcha hujjatlarni ko‘rib chiqadi va zaruratga ko‘ra qo‘shimcha hujjatlar yoki ma’lumotlarni so‘raydi.

Departament zaruratga ko‘ra tegishli shaxslar bilan suhbat o‘tkazadi.

Departament kelgan xulosalari to‘g‘risida xat yuboradi.

Departament har bir ayblov bo‘yicha hamda maxsus ta’limga oid talablarning buzilgan-buzilmaganligi haqida aniq qarorga keladi.

Departament ta’lim muassasasi tomonidan qoidabuzarlik sodir etilgani aniqlangan hollarda, uni bartaraf etish bo‘yicha choralarni belgilaydi.

Tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyat keltirish

Farzandingizning maxsus ta’limi bilan bog‘liq muayyan muammolarni hal qilish usullaridan biri — tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasi so‘ralgan murojaatni bevosita ta’lim muassasasiga yuborish va uning nusxasini ODEW departmentiga ham yuborishdir. Buni amalga oshirganingizda, siz tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyat (shuningdek, tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasini o‘tkazish so‘rovi, deb ham ataladi) topshirgan hisoblanasiz.

Tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatni quyidagilar ham topshirishi mumkin:

- Kamida 18 yoshga to‘lgan o‘quvchi
- Ta'lim muassasasi

ARIZA BERISH SABABLARI

Tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyat arizasi farzandingizning maxsus ta’limiga oid quyidagi sohalar bilan bog‘liq muammolar bo‘yicha berilishi mumkin:

- Nogironligi bo‘lgan bolani aniqlash
- Nogironligi bo‘lgan bolani baholash
- Nogironligi bo‘lgan bolaning ta’lim muassasasidagi joylashtirilishi
- Farzandingizga bepul va tegishli davlat ta’limi (FAPE)ni taqdim etish

Tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatda federal yoki shtat darajasidagi maxsus ta’lim talablari buzilganligi ko‘rsatilishi shart, shikoyat ota-ona (yoki shikoyatni topshirayotgan davlat ta’lim muassasasi) tegishli maxsus ta’lim qoidabuzarligi haqida bilgan yoki bilishi kerak bo‘lgan kundan boshlab *ikki yil* ichida topshirilishi lozim.
ODEW departmenti tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatni olganida, shikoyat tomonlari bo‘lgan ota-ona va ta’lim muassasasiga sud majlisida ishtirok etish imkoniyati hamisha berilishi shart.
Tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasi — bu tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatni hal qilish uchun sud muhokamasini o‘tkazish maqsadida Departament tomonidan Xolis sud muhokamasi xodimi tayinlanadigan rasmiy majlisdir.

KIRITILISHI KERAK BO‘LGAN MA’LUMOTLAR

Departament tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasi o‘tkazilishini so‘rash uchun foydalanish mumkin bo‘lgan shaklni taqdim etadi. So‘rovni topshiradigan shaxs yoki davlat ta'lim muassasi Departamentning shaklidan foydalanishi shart emas, ammo ushbu shaxs yoki tashkilot tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyat topshirishda quyidagi zarur ma'lumotlarni kiritishi shart:

1. O‘quvchining ismi
2. O‘quvchining manzili yoki aloqa ma’lumotlari
3. Ta’lim muassasasining nomi
4. Agar farzandingiz uysiz bo‘lsa, uning mavjud aloqa ma’lumotlari va u tahsil olayotgan maktab nomi
5. Farzandingizga taalluqli muayyan muammoning tavsifi, shuningdek, muammo bilan bog‘liq faktlar
6. Muammoni hal qilish bo‘yicha fikrlar yoki takliflar

Tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyat shtat darajasidagi shikoyat kabi batafsil ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi shart (16-betga qarang); biroq asl nusxadagi imzo talab qilinmaydi. Uni ta’lim muassasasiga va Departamentga shaxsan, pochta, faks yoki elektron pochta orqali yuborish mumkin. Dastlabki tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatingizda ko‘rsatilmagan masalalar tegishli tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasi davomida sud muhokamasi xodimi tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

TEGISHLI HUQUQIY JARAYON TALAB ETILGAN SHIKOYATGA TUZATISHLAR KIRITISH

Tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatga tuzatish kiritish degani — shikoyat allaqachon ODEW departmentiga topshirilganidan keyin unga yangi ma’lumot kiritishdir. Siz tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatingizga faqat quyidagi hollarda tuzatish kiritishingiz mumkin:

- Ikkinchi tomon tuzatish kiritilgan tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatga yozma ravishda rozi bo‘ladi va shikoyatni bunday shikoyatlarni hal qilishga mo‘ljallangan yig‘ilish o‘tkazish orqali hal qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi (shikoyatlarni hal qilishga mo‘ljallangan yig‘ilish tavsifi 23-betda berilgan), yoki
- Xolis sud muhokamasi xodimi ruxsatni beradi. Sud muhokamasi xodimi bunday ruxsatni tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamasi boshlanishidan ko‘pi bilan besh kun oldin berishi mumkin, biroq undan keyin ruxsat bera olmaydi.

Tegishli huquqiy jarayon doirasida ishni ko‘rish muddatlari va jarayoni

Agar farzandingizning ta’lim muassasasiga qarshi tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyat bersangiz, ta’lim muassasasi shikoyatingizni olganidan keyin 10 kalendar kuni ichida sizga avvaldan yozma xabarnoma yoki da’vo qilinayotgan maxsus ta’lim talabi buzilishi bo‘yicha javob berishi kerak, agar ta’lim muassasasi bunday xabarnomani avvalroq bergan bo‘lmasa.

Ta’lim muassasasi sizga beradigan avvaldan yozma xabarnoma quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- Sizning so‘rovingiz yoki tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatingiz taalluqli bo‘lgan harakatning tavsifi. Bu ta’lim muassasasi amalga oshirmoqchi bo‘lgan harakat yoki amalga oshirishdan bosh tortgan harakat bo‘lishi mumkin. Ta’lim muassasasi o‘z javobida nima sababdan maktab ushbu harakatni amalga oshirmoqchi bo‘lganini yoki uni amalga oshirishdan bosh tortganini ham tushuntirishi kerak.
- Farzandingizni baholashda foydalangan barcha usullar, farzandingiz haqidagi hujjatlar va ta’lim muassasasi ushbu harakatni amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik haqidagi qarorini qabul qilishda foydalangan hisobotlarning tavsifi.
- IEP guruhi farzandingiz uchun ko‘rib chiqqan boshqa variantlar va nima sababdan ushbu variantlarni rad etganining sabablari.
- Ta’lim muassasasining qaror qabul qilish yoki qaror qabul qilmasligiga ta’sir ko‘rsatgan boshqa tegishli omillarning tavsifi.

Ta’lim muassasasi sizga bepul yoki arzon narxlardagi yuridik yordam hamda olishingiz mumkin bo‘lgan boshqa tegishli xizmatlar haqida ma’lumot berishi kerak.

Agar tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyat sizga, ya’ni ota-ona sifatida qarshi berilgan bo‘lsa, siz shikoyatga 10 kalendar kuni ichida javob berishingiz shart. Javobingizda tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatda ko‘tarilgan masalalarga aniq javob berishingiz lozim.

Ma’lumotlar to‘liqligi

Tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyat, *agar* u tegishli tartibda berilgan bo‘lsa, yetarli deb hisoblanadi, faqat ikkinchi tomon xolis tinglov xodimi va shikoyatni topshirgan tomonni shikoyat belgilangan topshirish talablariga javob bermasligi, ya’ni yetarli emasligi haqida xabardor qilgan holat bundan mustasno. Ikkinchi tomon tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatning yetarliligiga e’tirozini shikoyatni olgan kundan boshlab 15 kalendar kuni ichida yozma ravishda bildirishi kerak.

Masalan, agar siz ta’lim muassasangizga tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyat topshirsangiz (va uning nusxasini ODEW departmentiga yuborsangiz), ta’lim muassasasi 15 kun ichida tinglov xodimiga yozma ravishda sizning so‘rovingiz tegishli tartibda berilmagan deb hisoblashini bildirmasa, shikoyat yetarli deb hisoblanadi. Shundan so‘ng, sud muhokamasi xodimi ta’lim muassasasining yozma xabarnomasini olgan kundan boshlab besh kalendar kuni ichida tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatingiz yetarlimi yoki yo‘qmi (ya’ni, u 22-sahifada ko‘rsatilgan tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatlarga qo‘yilgan talablarga javob beradimi-yo‘qmi), aniqlashi lozim. Sud muhokamasi xodimi ham o‘z qarorini sizga va ta’lim agentligiga 15 kun ichida yozma ravishda yuborishi shart.

Agar sud muhokamasi xodim sizning tegishli huquqiy jarayon talab etilgan shikoyatingizdagi ma'lumotlar yetarli emas degan qarorga kelsa, sizda tegishli huquqiy jarayon talab etilgan yangi shikoyat arizasini berish yokidastlabki shikoyatga tuzatishlar kiritish imkoniyatlari mavjud, magar...

Ta’lim agentligi bunga rozilik bergan va vaziyatni kelishuv uchrashuvi orqali hal qilish imkoniyati mavjud bo‘lsa yoki tinglov xodimi tinglov boshlanishidan kamida besh kun oldin ruxsat bersa, shikoyatga o‘zgartirish kiritish mumkin.

Agar siz tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyatingizga tegishli tartibda o‘zgartirish kiritsangiz, 30 kunlik hal qilish muddati o‘zgartirilgan shikoyatni topshirgan kundan boshlanadi.

Hal qilish muddati

Hal qilish muddati — tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyat topshirilgan vaqt bilan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha haqiqiy tinglov o‘rtasidagi davr. Hal qilish muddati kelishuv uchrashuvini o‘z ichiga oladi. Bu uchrashuv rasmiy tinglov boshlanishidan oldin maxsus ta’lim bo‘yicha nizoni yana bir bor hal qilish imkonini beradi. Agar siz tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyat topshirsangiz, ammo keyinchalik hal qilish jarayonida ishtirok etmasangiz, bu tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha belgilangan muddatlarning boshlanishini kechiktiradi.

Hal qilish muddati tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyat topshirilgan kundan boshlab 30 kunni tashkil etadi (yoki shikoyatga tegishli tartibda o‘zgartirish kiritilgan kundan boshlab). Agar ta’lim agentligi 30 kun o‘tguniga qadar tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyatni sizni qoniqtiradigan tarzda hal qilmagan bo‘lsa, tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov o‘tkazilishi mumkin. 30 kunlik hal qilish muddati tugagach, tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglovni o‘tkazish va xolis tinglov xodimining qaror chiqarishi uchun 45 kunlik muddat beriladi (22-betga qarang). Biroq siz va ta’lim agentligi 30 kundan ortiq davom etadigan vositachilikka kelishgan bo‘lsangiz, bu muddat qo‘llanilmaydi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, agar ushbu 30 kun davomida siz va ta’lim agentligi kelishuvga erishishning iloji yo‘qligi haqida yozma ravishda kelishsangiz, 30 kunlik hal qilish muddati muddatidan oldin tugashi mumkin.

30 kunlik hal qilish muddati davomida va tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyatni olganidan keyingi dastlabki 15 kalendar kuni ichida ta’lim agentligi kelishuv uchrashuvini belgilashi shart. Agar ta’lim muassasasi 15 kalendar kun ichida kelishuv uchrashuvini o‘tkazmasa yoki unda ishtirok etmasa, siz 45 kunlik tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov muddatini boshlashni tinglov xodimidan so‘rashingiz mumkin. Agar tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyatni ta’lim agentligining o‘zi bergan bo‘lsa, ta’lim muassasasi kelishuv uchrashuvini belgilashi shart emas.

KELISHUV UCHRASHUVI

Kelishuv uchrashuvining maqsadi — sizga shikoyatda ko‘rsatilgan muammolarni muhokama qilish imkoniyatini berish va ta’lim agentligiga muammoni hal qilish yo‘lida siz bilan birgalikda ishlash imkoniyatini yaratish. Kelishuv uchrashuvini chaqirish mas’uliyati ta’lim agentligiga yuklatiladi va siz unda ishtirok etishingiz shart. Agar siz kelishuv uchrashuvida ishtirok etmasangiz va ta’lim agentligi sizning ishtirok etmaganingizni hujjatlashtirsa, ta’lim agentligi 30 kunlik muddat oxirida tinglov xodimidan sizning tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyatingizni bekor qilishni so‘rashi mumkin.

Tegishli huquqiy jarayon doirasidagi sud muhokamalari Xolis sud muhokamasi xodimi tomonidan o‘tkaziladi.

Tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyatni hal qilib bo‘lmasa, bu xolis tinglov xodimi tomonidan o‘tkaziladigan rasmiy tinglovga olib keladi. Tinglov xodimi Ohio Department of Education and Workforce tomonidan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglovlarni o‘tkazish uchun tayyorgarlikdan o‘tgan advokat bo‘lishi shart.

Tinglov xodimining xarajatlarini ta’lim agentligi to‘laydi; biroq bu shaxs xolis uchinchi tomon bo‘lib, tasodifiy ravishda tanlanadi. U ta’lim bilan shug‘ullanuvchi ta’lim agentligida ishlamaydi va bir tomonning manfaatini ikkinchi tomondan ustun qo‘yadigan shaxsiy yoki kasbiy manfaatga ega bo‘lishi mumkin emas.

Bundan tashqari, tinglov xodimi maxsus ta’limga qo‘yiladigan talablarni, jumladan IDEA, federal va shtat qonunlari hamda qoidalarini, shuningdek sudlarning maxsus ta’limga oid ishlarni qanday talqin qilishini yaxshi biladi.

Tinglovdan so‘ng tinglov xodimi standart huquqiy amaliyotga muvofiq qaror yozadi.

Siz va ta’lim agentligi IEP jamoasining qaysi a’zolari kelishuv uchrashuvida ishtirok etishi kerakligini birgalikda belgilaysiz. Ushbu uchrashuvda ta’lim agentligi nomidan ta’lim agentligi uchun qaror qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan vakil ishtirok etishi shart.

Ta’lim muassasasining advokati ushbu uchrashuvda ishtirok etmaydi, agar siz o‘z advokatingizni uchrashuvga olib kelishni tanlamasangiz. Ushbu uchrashuv hal qilish jarayonining majburiy bosqichi hisoblanadi, bundan faqat siz va ta’lim muassasasi yozma ravishda kelishuv uchrashuvidan voz kechishga yoki ushbu uchrashuv o‘rniga vositachilikdan foydalanishga kelishgan bo‘lsangiz mustasno. Agar ikkalangiz ham rozi bo‘lsangiz, siz va ta’lim muassasasi 30 kunlik hal qilish muddatidan keyin ham vositachilikni davom ettirishingiz mumkin. Bu 45 kunlik tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov va qaror chiqarish muddatining boshlanishini oldini oladi.

Agar siz va ta’lim muassasasi nizoni hal qilish uchrashuvida hal qilsangiz, ikkalangiz ham quyidagilarni o‘z ichiga olgan yuridik jihatdan majburiy kelishuvni imzolashingiz shart:

- Bundan keyin nima bo‘lishini yozma ravishda belgilaydi
- Siz va ta’lim muassasasi vakili tomonidan imzolanadi
- Sud tomonidan ijro ettirilishi mumkin

Yuridik jihatdan majburiy degani, agar siz yoki ta’lim muassasasi kelishuvga rioya qilmasa, sud sizni yoki ta’lim agentligini kelishuv shartlarini bajarishga majbur qilishi mumkin.

Agar kelishuvni imzolaganingizdan keyin siz yoki ta’lim muassasasi kelishuvga rozi bo‘lmaslikka qaror qilsa, imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida tomonlarning istalgan biri kelishuvni bekor qilishi mumkin.

Agar siz va ta’lim agentligi 30 kunlik hal qilish muddati tugashidan oldin tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyat yuzasidan kelishuvga erishsangiz, shikoyat yopiladi va tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov o‘tkazilmaydi.

Sud muhokamasi jarayoni

Tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov siz va ta’lim agentligi uchun qulay bo‘lgan joy va vaqtda belgilanishi va o‘tkazilishi shart. Tinglov jarayonida aloqa qilish zarur bo‘lganida, xolis tinglov xodimi siz va ta’lim agentligi bilan bir vaqtning o‘zida bog‘lanadi. Boshqacha qilib aytganda, xolis tinglov xodimi, siz va ta’lim agentligi o‘rtasidagi barcha aloqa birgalikda amalga oshiriladi, alohida-alohida emas.

45 kunlik muddat tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglovni o‘tkazish hamda xolis tinglov xodimining qaror chiqarishi uchun ajratilgan vaqtni o‘z ichiga oladi. 45 kunlik tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov muddati 30 kunlik hal qilish muddati tugaganidan keyin yoki quyidagilardan biri sodir bo‘lganidan keyin boshlanadi:

- Siz va ta’lim muassasasi kelishuv uchrashuvidan voz kechishga (uni o‘tkazmaslikka) yozma ravishda kelishsangiz; yoki
- Kelishuv uchrashuvida yoki vositachilik uchrashuvida masalalarni muhokama qilishni boshlaganingizdan so‘ng, siz va ta’lim muassasasi kelishuvga erishishning iloji yo‘qligi haqida yozma ravishda kelishsangiz; yoki

- Siz va ta’lim agentligi 30 kunlik hal qilish muddatidan oshib, vositachilikni davom ettirishga yozma ravishda kelishsangiz, keyinchalik siz yoki ta’lim agentligi vositachilik jarayonidan chiqsa, quyidagi qoidalar qo‘llaniladi.

Agar tomonlardan birining iltimosiga ko‘ra xolis tinglov xodimi 45 kunlik tinglov muddati ichida qo‘shimcha vaqt berishga (ya’ni muddatni uzaytirishga) rozi bo‘lmasa, quyidagilar amalga oshiriladi:

- Tinglov o‘tkazilishi shart.
- Tinglov bo‘yicha qaror chiqarilishi shart.
- Qaror nusxasi buyurtma xat orqali sizga, ta’lim agentligiga hamda Ohio Department of Education and Workforcega yuborilishi shart.

Tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglovdan kamida besh kun oldin siz va ta’lim agentligi hujjatlar va dalillarni oshkor qilish bo‘yicha uchrashuvda ishtirok etishingiz shart. Ushbu uchrashuvning maqsadi — siz ham, ta’lim agentligi ham tinglovda taqdim etiladigan ma’lumotlarga ega ekaningizni ta’minlash.

TINGLOVDA SIZNING HUQUQLARINGIZ

Tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglovda siz quyidagi huquqlarga egasiz:

- Tinglovga sabab bo‘lgan farzandingizning ishtirok etishini ta’minlash
- Tinglovni jamoatchilik uchun ochiq o‘tkazishni so‘rash
- Advokatingiz yoki nogironligi bo‘lgan bolalar masalasida maxsus bilimga ega shaxslarning yoningizda bo‘lishi va sizga maslahat berishi
- Dalillarni (isbotlarni) taqdim etish, guvohlar bilan yuzlashtirish, ularni qarama-qarshi so‘roq qilish va guvohlarning tinglovda ishtirok etishini talab qilish. (Shuni yodda tutingki, ta’lim agentligi yangi masalalarni ko‘tarishingizga ruxsat bermasa, tinglov faqat siz tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyatingizda ko‘targan masalalarni ko‘rib chiqadi.)
- Tinglovdan kamida besh ish kuni oldin sizga ko‘rsatilmagan har qanday dalilning tinglovda taqdim etilishiga yo‘l qo‘ymaslikni talab qilish.
- Hech qanday xarajatsiz tinglovning so‘zma-so‘z yozma bayonnomasini (yoki xohishingizga ko‘ra elektron nusxasini), shuningdek aniqlangan holatlar va chiqarilgan qarorlar haqidagi barcha yozuvlarni olish.

Agar sizga hamrohlik qilayotgan himoyachilar advokat bo‘lmasa

Agar sizga hamrohlik qilayotgan himoyachilar advokat bo‘lmasa, ular boshqa tomondan advokatlik haqi yoki o‘z xizmatlari uchun boshqa to‘lovlarni olish huquqiga ega emas. Himoyachi tinglovda advokatlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin emas va uning ish jarayonidagi ishtiroki cheklanishi mumkin.

Tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyatlar va muddatlar

Tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov - ayrim maxsus ta’lim nizolarini tezroq hal qilish uchun qisqartirilgan muddatlarda o‘tkaziladigan tinglovdir. Quyidagi holatlarda siz yoki ta’lim agentligi tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov o‘tkazilishini so‘rashingiz mumkin, ammo buning uchun quyidagi shartlardan biri bajarilishi kerak:

1. Farzandingizning ta’lim olish joyi (dasturi yoki xizmatlari) bo‘yicha ta’lim agentligi chiqargan qarorga rozi emassiz va bu qaror maktab tomonidan farzandingizga nisbatan intizomiy chora qo‘llanilishi natijasida qabul qilingan; yoki
2. Xatti-harakatning nogironlik bilan bog‘liqligini aniqlash natijalariga rozi emassiz; yoki

3. Ta’lim agentligi farzandingizning hozirgi ta’lim olish joyida (dasturi yoki xizmatlarida) qolishi farzandingizga yoki boshqalarga jiddiy zarar yetkazishi ehtimoli yuqori, deb hisoblaydi.

Tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyat uchun 15 kalendar kunlik hal qilish muddati va 20 o‘quv kunlik tinglov muddati belgilangan. Ta’lim muassasasi tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyatni olganidan keyin yetti kalendar kun ichida kelishuv uchrashuvini belgilashi shart. Tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov tugaganidan so‘ng, tinglov xodimiga yakuniy qarorni yozish va uni sizga hamda ta’lim muassasasiga taqdim etish uchun 10 o‘quv kuni beriladi. Tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyat jarayonida qo‘shimcha vaqt berilmaydi.

Qaror ustidan shikoyat qilish

Tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov yakunida xolis tinglov xodimi chiqargan qaror yakuniy hisoblanadi. Biroq qarordan norozi tomon qarorni olgan kundan boshlab 45 kun ichida Ohio Department of Education and Workforce’ga bevosita apellyatsiya shikoyatini topshirishi mumkin. Qarordan norozi tomon - tinglov xodimining qarori o‘z foydasiga bo‘lmagan, ya’ni ishda yutqazgan ota-ona yoki ta’lim agentligidir.

TINGLOV XODIMINING QARORLARI USTIDAN QANDAY APELLYATSIYA SHIKOYATI BERISH MUMKIN

Tinglov xodimining qarori ustidan apellyatsiya shikoyati berish uchun shikoyatingizning yozma nusxasini pochta orqali yoki elektron pochta orqali Ohio Department of Education and Workforcega yuborishingiz va uning bir nusxasini ta’lim agentligingiz rahbariga topshirishingiz kerak. Departament tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha chiqarilgan qarorni xolisona ko‘rib chiqish uchun shtat darajasidagi tekshiruv xodimini (yoki “tekshiruv xodimi”) tayinlaydi. Ohio Department of Education and Workforce tekshiruv xodimining haqini to‘laydi.

Tekshiruv xodimi tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglovga oid barcha hujjatlarni ko‘rib chiqadi. Bundan tashqari, tekshiruv xodimi tinglov tegishli tartib-qoidalar talablariga muvofiq o‘tkazilganini tekshiradi va zarur deb topsa, qo‘shimcha dalillarni talab qiladi. Tekshiruv xodimi sizdan va ta’lim muassasasidan og‘zaki yoki yozma dalillar va asoslarni taqdim etishni so‘rashi mumkin. Agar tekshiruv xodimi og‘zaki dalillarni ko‘rib chiqish uchun tinglov o‘tkazsa, tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglovda sizga beriladigan barcha huquqlar (25-betga qarang) tekshiruv xodimi oldidagi tinglovda ham sizga beriladi.

MUDDATLAR / MUDDATNI UZAYTIRISH

Departament shtat darajasidagi qayta ko‘rib chiqish haqidagi so‘rovingizni olganidan keyin 30 kun ichida tekshiruv xodimi qaror chiqaradi. Biroq u muddatni uzaytirishi mumkin; buni ota-ona yoki ta’lim agentligi so‘rashi mumkin. (Shuni yodda tutingki, tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov qarori ustidan apellyatsiya berilganda muddatni uzaytirishga ruxsat etilmaydi.) Shuningdek, siz tekshiruv xodimining aniqlagan holatlari va chiqargan qarorlari bo‘yicha yozma nusxalarni yoki so‘zma-so‘z elektron yozuvlarni so‘rashingiz mumkin.

FEDERAL YOKI SHTAT SUDIGA APELLYATSIYA SHIKOYATI KELTIRISH

Shtat darajasida qayta ko‘rib chiqish natijasida chiqarilgan qaror federal yoki shtat sudiga shikoyat qilinmasa, yakuniy hisoblanadi. Tekshiruv xodimining qaroridan norozi bo‘lgan (ya’ni, qaror o‘z foydasiga chiqarilmagan) tomon ushbu qaror chiqarilgan sanadan boshlab 90 kun ichida federal okrug sudiga yoki tekshiruv xodimining qarori haqida xabarnoma olingan kundan boshlab 45 kun ichida farzandingiz ta’lim oladigan muassasa joylashgan okrugdagi umumiy yurisdiksiyali sudga da’vo arizasi berish huquqiga ega. Sud hujjatlarni ko‘rib chiqadi, tomonlarning iltimosiga binoan qo‘shimcha dalillarni tinglaydi va taqdim etilgan hujjatlar hamda dalillar asosida yakuniy qaror chiqaradi. Sudga apellyatsiya shikoyati berishda sud xarajatlarini to‘lashingiz kerak. Biroq ishda g‘alaba qozonsangiz, sudning ixtiyoriga ko‘ra sud xarajatlari va advokatlik haqlarini undirish huquqiga ega bo‘lishingiz mumkin.

Tegishli tartibda ish yuritish jarayonida bolaning holati

- Tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyat ko‘rib chiqilayotgan vaqt davomida, siz va ta’lim agentligi bolaning ta’lim olish joyini o‘zgartirishga kelishmagan bo‘lsangiz, farzandingiz hozirgi ta’lim olish joyida qolishi shart.
- Farzandingizning hozirgi ta’lim olish joyi uning eng so‘nggi amalga oshirilgan IEP hujjatida ko‘rsatilgan joy hisoblanadi.
- Agar ta’lim muassasasi intizomiy chora sababli farzandingizni IAESga (vaqtinchalik muqobil ta’lim muhitiga yoki maktabdan tashqaridagi vaqtinchalik ta’lim muhitiga) joylashtirgan bo‘lsa, farzandingiz tinglov xodimi qaror chiqarguniga qadar yoki ta’lim muassasasi tomonidan belgilangan intizomiy chora muddati tugaguniga qadar, ushbu ta’lim muhitida qoladi. Bu holatlardan qaysi biri oldin sodir bo‘lsa, o‘sha muddat qo‘llaniladi.
- Agar tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyat ta’lim muassasasiga dastlabki qabul qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, sizning ruxsatingiz bilan farzandingiz tegishli tartibda ish yuritish jarayoni yakunlanguniga qadar ta’lim agentligiga qabul qilinishi shart.
- Agar tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyat farzandingiz uch yoshga to‘lgani va qonunning erta aralashuv xizmatlariga oid qismi bo‘yicha xizmat olish huquqidan mahrum bo‘lgani sababli, qonunning maktab yoshidagi bolalarga taalluqli qismi bo‘yicha xizmatlarni boshlash uchun ariza topshirish bilan bog‘liq bo‘lsa, ta’lim agentligi farzandingiz ilgari olmagan erta aralashuv xizmatlarini taqdim etishi shart emas.
- Agar farzandingiz maxsus ta’lim xizmatlarini olish huquqiga ega deb topilsa va ota-ona ushbu xizmatlarni dastlabki taqdim etishga rozilik bersa, ta’lim agentligi ota-ona va ta’lim agentligi o‘rtasida nizo mavjud bo‘lmagan xizmatlarni taqdim etishi shart.
- Agar tekshiruv xodimi ta’lim olish joyini o‘zgartirish maqsadga muvofiq, degan fikringizga qo‘shilsa, bolaning ta’lim olish joyi o‘zgarishi “hozirgi ta’lim olish joyida qolish” talabi nuqtayi nazaridan shtat va ota-onalar o‘rtasidagi kelishuv sifatida ko‘rib chiqilishi shart.

Xolis sud muhokamasi xodimi qarori ustidan apellyatsiya keltirish

Xolis tinglov xodimining qarori ustidan e’tirozingizni (apellyatsiyani) qarorni olgan kundan boshlab 45 kalendar kun ichida yozma ravishda bildirishingiz mumkin. Apellyatsiya shikoyatini quyidagi manzilga yuboring:

Ohio Department of Education and Workforce
Alohida ehtiyojli bolalar boshqarmasining Nizolarni hal qilish bo‘limi (Office for Exceptional Children Dispute Resolution Section)
25 South Front Street Mail Stop 409 Columbus, Ohio 43215 OECdueprocess@education.ohio.gov

Qo‘shimcha yordam olish uchun Ohio Department of Education and Workforce’ning Office for Exceptional Children bo‘limiga (614) 466-2650 yoki bepul (877) 644-6338 raqami orqali qo‘ng‘iroq qiling.

Advokatlik haqi

Siz tegishli tartibda ish yuritish jarayonida yoki ushbu jarayon bo‘yicha chiqarilgan qaror ustidan apellyatsiya ko‘rib chiqilayotganda istalgan vaqtda o‘zingizni himoya qilish uchun advokat yollashingiz mumkin. Biroq o‘z yuridik xarajatlaringizni o‘zingiz to‘lashingiz kerak. Agar advokat yollasangiz va tegishli tartibda ish yuritish bilan bog‘liq federal yoki shtat sudidagi ishda g‘alaba qozonsangiz (ya’ni, foydangizga qaror chiqarilsa), sud ta’lim agentligini sizga oqilona miqdordagi advokatlik haqini to‘lashga majbur qilishi mumkin.

AGAR TA’LIM AGENTLIGI ISHDA G‘ALABA QOZONSA

Agar ta’lim agentligi ishda g‘alaba qozonsa, sud sizni ta’lim agentligining oqilona miqdordagi advokatlik haqini to‘lashga majbur qilishi mumkin. Agar ta’lim agentligi yoki Ohio Department of Education and Workforce ishda g‘alaba qozonsa va sud quyidagi holatlardan birini aniqlasa, sud sizni yoki advokatingizni ularning advokatlik haqini to‘lashga majbur qilishi mumkin:

- Da’vo asossiz, oqilona bo‘lmagan yoki yetarli huquqiy asosga ega bo‘lmagan
- Da’vo aniq ravishda asossiz, oqilona bo‘lmagan yoki yetarli huquqiy asosga ega emasligi ma’lum bo‘lganidan keyin ham siz sud jarayonini davom ettirgansiz.
- Da’vo quyidagi maqsadlarda qo‘zg‘atilgan bo‘lsa: Boshqa tomonni ta’qib qilish; Asossiz kechikishlarga sabab bo‘lish; Yuridik xizmatlar uchun xarajatlarni asossiz ravishda oshirish.

AGAR SUD ADVOKATLIK HAQINI SIZGA YOKI TA’LIM MUASSASASIGA TO‘LASHNI BUYURSA

Agar sud advokatlik haqini sizga yoki ta’lim muassasasiga to‘lashni buyursa, to‘lanishi lozim bo‘lgan oqilona miqdorni sud belgilaydi. Advokatlik haqi da’vo yoki ish yuritish boshlangan hududdagi odatiy tariflarga, shuningdek ko‘rsatilgan xizmatlarning turi va sifatiga asoslanishi kerak. Sudning advokatlik haqini undirish bo‘yicha vakolati muayyan cheklovlarga ega.

Sud quyidagi holatlarda advokatlik haqini undirishni belgilay olmaydi:

- Agar ta’lim muassasasi ish yuritish boshlanganidan keyin 10 kun ichida nizoni hal qilish bo‘yicha yozma taklif bergan bo‘lsa, siz ushbu taklifni 10 kun ichida qabul qilmagan bo‘lsangiz va ish bo‘yicha chiqarilgan qaror ta’lim muassasasi taklif qilgan kelishuvdan siz uchun kamroq foydali bo‘lsa.
    - Biroq, agar siz ishda g‘alaba qozonsangiz va sud ta’lim muassasasining kelishuv taklifini rad etishingiz uchun yetarlicha asosli sabablaringiz bo‘lgan, deb topsa, sud sizga advokatlik haqini undirishga ruxsat berishi mumkin.
- Advokatingizning IEP yig‘ilishidagi ishtiroki uchun, agar ushbu yig‘ilish ma’muriy eshituv yoki sud jarayoni natijasida chaqirilmagan bo‘lsa
- Advokatingizning IEP yig‘ilishida ishtirok etgani uchun

ADVOKATLIK HAQLARINI KAMAYTIRISH

Sud quyidagi holatlarda ham advokatlik haqini undirish miqdorini kamaytirishi mumkin:

- Ish yuritish davomida siz yoki advokatingiz nizoni yakuniy hal qilishni asossiz ravishda kechiktirgan bo‘lsangiz
- Advokatingizning haqi shu hududda o‘xshash xizmatlar uchun malakasi, obro‘si va tajribasi jihatidan taqqoslanadigan advokatlarga to‘lanadigan odatiy soatbay tarifdan asossiz ravishda yuqori bo‘lsa
- Ishning xususiyatini hisobga olganda, sarflangan vaqt va ko‘rsatilgan yuridik xizmatlar haddan tashqari ko‘p bo‘lsa

- Advokatingiz shikoyat to‘g‘risidagi bildirishnomada ta’lim agentligiga tegishli ma’lumotlarni taqdim etmagan bo‘lsa

Agar sud shtat yoki ta’lim muassasasi ishni yakuniy hal qilishni asossiz ravishda kechiktirganini yoki IDEA qonunida belgilangan protsessual kafolatlarni boshqa yo‘l bilan buzganini aniqlasa, yuqoridagi holatlarning hech biri qo‘llanilmaydi.

Intizomiy choralar

Nogironligi bo‘lgan bolalarga nisbatan intizomiy tartib-taomillar

Ayrim hollarda, ta’lim muassasasi nogironligi bo‘lgan farzandingizni maktabdan vaqtincha chetlashtirgan, haydagan yoki boshqa yo‘l bilan uning hozirgi ta’lim olish joyidan olib tashlaganidan keyin ham, unga maxsus ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishda davom etishi kerak bo‘lishi mumkin (Farzandingizning hozirgi ta’lim olish joyi haqida qo‘shimcha ma’lumot olish uchun uning IEP hujjatiga qarang).

TA’LIM OLISH JOYI VA MUQOBIL VARIANTLAR

Agar farzandingiz ta’lim muassasasi qoidalarini buzganligi sababli hozirgi ta’lim olish joyidan ketma-ket 10 o‘quv kunidan kam muddatga chetlashtirilsa, ta’lim agentligi ushbu davrda unga maxsus ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishi shart emas. Agar farzandingiz *maktabdan ketma-ket 10 o‘quv kunidan ortiq muddatga chetlashtirilsa,* maktab boshqa ta’lim muhitida (masalan, boshqa sinfda, binoda yoki o‘quvchining uyida) bo‘lsa ham, unga maxsus ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishda davom etishi shart.

Agar ta’lim agentligi bir o‘quv yili davomida farzandingizni hozirgi ta’lim olish joyidan ketma-ket 10 o‘quv kunidan ortiq muddatga chetlashtirsa, bu farzandingizning ta’lim olish joyi o‘zgargan deb hisoblanadi.

Agar ta’lim muassasasi farzandingizni bir o‘quv yili davomida bir necha marta hozirgi ta’lim olish joyidan chetlashtirgan bo‘lsa va bu muddatlar jami 10 kundan oshsa, maktab ushbu chetlashtirishlar farzandingizning ta’lim olish joyi o‘zgarishiga olib kelgan-kelmaganini aniqlashi shart.

Bunday qaror qabul qilishda maktab quyidagi omillarni hisobga olishi kerak:

- Farzandingiz har safar chetlashtirilgan muddat
- Farzandingiz jami qancha vaqtga chetlashtirilgani
- Chetlashtirish holatlari orasidagi vaqt oralig‘i
- Farzandingizning xatti-harakati avvalgi chetlashtirish holatlarida namoyon bo‘lgan xatti-harakatlariga qanchalik o‘xshashligi

Farzandingiz maktab qoidalariga rioya qilmagani sababli uning ta’lim olish joyini o‘zgartirishdan oldin ta’lim muassasasi, ota-ona va ota-ona hamda ta’lim muassasasi belgilagan IEP jamoasining tegishli a’zolari xatti-harakatning nogironlik bilan bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha ko‘rib chiqish yig‘ilishini o‘tkazish uchun uchrashishi shart. Ushbu ko‘rib chiqishning maqsadi - farzandingizning xatti-harakati uning nogironligi sababli yuzaga kelganmi yoki nogironligi bilan bevosita va sezilarli darajada bog‘liqmi, shuni aniqlash.

Xatti-harakatning nogironlik bilan bog‘liqligini aniqlash

Intizomiy sabablar tufayli farzandingizning ta’lim olish joyini o‘zgartirishdan oldin ta’lim agentligi uning huquqlarini himoya qilish uchun muayyan choralarni ko‘rishi shart. Ushbu choralardan biri - xatti-harakatning nogironlik bilan bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha ko‘rib chiqish yig‘ilishini o‘tkazishdir. Bu yig‘ilishda farzandingizning xulq-atvori uning nogironligi sababli yuzaga kelganmi yoki nogironligi bilan bevosita va sezilarli darajada bog‘liqmi, degan masala aniqlanadi. Boshqacha aytganda, farzandingizning xulq-atvoriga uning nogironligi sabab bo‘lganmi? O‘quvchining IEP jamoasi ta’lim olish joyini o‘zgartirish to‘g‘risidagi har qanday qaror qabul qilinganidan keyin 10 o‘quv kuni ichida farzandingizning xulq-atvori nogironligi sababli yuzaga kelgan-kelmaganini aniqlashi shart.

XULQ-ATVORNING NOGIRONLIK BILAN BOG‘LIQLIGINI ANIQLASH BO‘YICHA KO‘RIB CHIQISH YIG‘ILISHI

Xulq-atvorning nogironlik bilan bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha ko‘rib chiqish yig‘ilishida siz va IEP jamoasining boshqa a’zolari farzandingizning IEP hujjati, o‘qituvchilarning kuzatuvlari hamda siz taqdim etgan tegishli ma’lumotlarni ko‘rib chiqasiz.

Agar xulq-atvor farzandingiz nogironligining namoyon bo‘lishi deb topilsa, IEP jamoasi ta’lim olish joyini o‘zgartirishga kelishmagan bo‘lsa, farzandingiz avval chetlashtirilgan ta’lim olish joyiga qaytarilishi kerak.

Agar farzandingizning xulq-atvori nogironligining namoyon bo‘lishi deb topilsa, IEP jamoasi quyidagilarni bajarishi shart:

1. 10 kun ichida funksional xulq-atvor baholashini boshlash va uni imkon qadar tezroq yakunlash. Funksional xulq-atvor baholashi - farzandingizning xulq-atvorini o‘rganish bo‘lib, u farzandingiz atrof-muhitidagi qaysi omillar nomaqbul xulq-atvorni keltirib chiqarishini hamda farzandingiz ijobiy natijalar va fikr-mulohazalar olishi uchun qaysi muqobil xulq-atvor shakllarini o‘rgatish kerakligini aniqlashga xizmat qiladi.
2. Agar funksional xulq-atvor baholashi avvaldan o‘tkazilgan bo‘lsa va mazkur intizomiy holat bilan bog‘liq bo‘lsa, farzandingiz uchun xulq-atvorni o‘zgartirish rejasini ishlab chiqish. Bu reja maktabda nomaqbul deb hisoblangan xulq-atvorni va maktab ularni kamaytirish uchun qo‘llaydigan aniq usullarni belgilaydi; yoki

3. Agar xulq-atvorni o‘zgartirish rejasi avvaldan mavjud bo‘lsa, ushbu reja ko‘rib chiqilishi va zarur o‘zgartirishlar 10 kun ichida kiritilishi kerak.

Oraliq muqobil (Vaqtinchalik va boshqa) ta’lim muhiti

Farzandingizni vaqtinchalik muqobil ta’lim muhitiga (IAES) joylashtirish to‘g‘risidagi qaror uning IEP jamoasi tomonidan qabul qilinadi. IAES - farzandingiz maxsus ta’lim olishi uchun mo‘ljallangan boshqa, vaqtinchalik ta’lim muhitidir. Agar IEP jamoasi farzandingiz maktab qoidasini buzganligi sababli uni IAESga o‘tkazishga qaror qilsa, ta’lim muassasasi qaror qabul qilingan kuni sizni bu haqda xabardor qilishi va sizga “Maxsus ta’limda ota-onalar huquqlari bo‘yicha qo‘llanma”ni taqdim etishi shart.

Farzandingizning xulq-atvori uning nogironligi sababli yuzaga kelgan bo‘lsa ham, quyidagi holatlardan biri sodir bo‘lganida, ta’lim muassasasi uni 45 o‘quv kunigacha IAESga o‘tkazishi mumkin:

- Qurol olib yurgan bo‘lsa
- Noqonuniy giyohvand moddalarni bila turib saqlagan yoki ishlatgan yoxud nazorat qilinadigan moddani (masalan, narkotik moddalarni) sotgan yoki sotishga uringan bo‘lsa
- Boshqa shaxsga jiddiy tan jarohati yetkazgan bo‘lsa

Bu qoida, odatda, farzandingizning xulq-atvori maktabga ketayotganda, maktabda yoki maktab tadbirida sodir bo‘lganidan qat’i nazar, qo‘llaniladi.

Agar farzandingizning xulq-atvori *tuning nogironligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan bo‘lsa*u nogironligi bo‘lmagan o‘quvchiga nisbatan qo‘llaniladigan intizomiy chora muddati bilan bir xil muddatga IAESga joylashtirilishi mumkin.

Farzandingizning xulq-atvori taxmin qilinayotgan nogironlik bilan bog‘liq bo‘lsa

Agar farzandingizda IEP mavjud bo‘lmasa, maktab qoidalarini buzishidan oldin quyidagi holatlardan biri sodir bo‘lgan bo‘lsa, maktabdan farzandingizga nogironligi bo‘lgan bola sifatida munosabatda bo‘lishni so‘rashingiz mumkin:

- Siz maktab ma’muriyatiga yoki farzandingizning o‘qituvchisiga yozma ravishda farzandingizga maxsus ta’lim xizmatlari kerak bo‘lishi mumkinligini bildirgansiz; yoki
- Farzandingiz uchun baholash o‘tkazishni so‘ragansiz; yoki
- Farzandingizning o‘qituvchisi yoki boshqa maktab xodimi farzandingizning xulq-atvoridagi muayyan holatlardan xavotirda ekanini maxsus ta’lim bo‘limi direktoriga yoki boshqa rahbar xodimga bevosita bildirgan.
- Agar siz ta’lim muassasasiga farzandingizni maxsus ta’lim olish huquqiga egaligini aniqlash uchun baholashga ruxsat berishdan bosh tortgan bo‘lsangiz, ta’lim muassasasidan farzandingizga nogironligi bo‘lgan bola sifatida munosabatda bo‘lish talab etilmaydi. Bu, shuningdek, siz farzandingiz uchun maxsus ta’lim va unga bog‘liq xizmatlarni rad etgan bo‘lsangiz yoki farzandingiz baholanib, jamoa unda nogironlik mavjud emas degan xulosaga kelgan bo‘lsa ham amal qiladi. Ta’lim muassasasi xulq-atvori xuddi shunday bo‘lgan, nogironligi bo‘lmagan o‘quvchilarga qanday intizomiy chora qo‘llasa, farzandingizga ham xuddi shunday chora qo‘llashi mumkin.

Agar farzandingizning xulq-atvori *uning nogironligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa nogironligi sababli* yuzaga kelgan bo‘lsa va farzandingiz maktab qoidalarini buzgan bo‘lsa, siz va ta’lim muassasasi xulq-atvorni o‘zgartirish rejasi yoki IEPga o‘zgartirish kiritish doirasida ta’lim olish joyini o‘zgartirishga kelishmagan bo‘lsangiz, farzandingiz avval chetlashtirilgan ta’lim muhitiga qaytarilishi shart.

Biroq ta’lim muassasasi farzandingizning hozirgi ta’lim olish joyida (uning IEP hujjatiga muvofiq) qolishi farzandingizga yoki boshqalarga jiddiy zarar yetkazish ehtimolini tug‘diradi, deb hisoblasa, bu masalani muhokama qilish uchun IEP yig‘ilishini chaqirishi mumkin. Agar siz va ta’lim muassasasi ta’lim olish joyini o‘zgartirish masalasida kelisha olmasangiz, ta’lim muassasasi tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov o‘tkazilishini so‘rashi mumkin. Boshqacha aytganda, nizoni tezroq hal qilish uchun qisqartirilgan muddatlarda o‘tkaziladigan tinglovni talab qilishi mumkin (25-betdagi tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish haqidagi ma’lumotga qarang).

TA’LIM OLISH JOYINI O‘ZGARTIRISH YOKI XULQ-ATVORNING NOGIRONLIK BILAN BOG‘LIQLIGINI ANIQLASH BO‘YICHA KO‘RIB CHIQISH TINGLOVI NATIJASIGA ROZI BO‘LMASANGIZ

Intizomiy sabablar tufayli farzandingizning hozirgi ta’lim olish joyini o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarorga yoki xulq-atvorning nogironlik bilan bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha ko‘rib chiqish natijalariga e’tiroz bildirish uchun tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov o‘tkazilishini so‘rashingiz mumkin (25-betdagi tegishli tartibda ish yuritish haqidagi ma’lumotga qarang). Xolis tinglov xodimi tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov davomida ta’lim muassasasi farzandingizning ta’lim olish joyini o‘zgartirishda belgilangan talablarga rioya qilgan-qilmaganini yoki farzandingizning xulq-atvori uning nogironligi bilan bog‘liq bo‘lgan-bo‘lmaganini ta’lim muassasasi isbotlagan-isbotlamaganini aniqlaydi.

Yuqorida qayd etilganidek, ta’lim muassasasi farzandingizning hozirgi ta’lim olish joyida qolishi unga yoki boshqalarga zarar yetkazish ehtimoli yuqori, deb hisoblasa, tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha tinglov o‘tkazilishini so‘rashi mumkin (25-betdagi tezlashtirilgan tegishli tartibda ish yuritish haqidagi ma’lumotga qara

Nogironligi bo‘lgan bolalarni ota-onalari tomonidan xususiy maktabga davlat mablag‘lari hisobidan joylashtirish

Xarajatlarni qoplashni aniqlash jarayoni

Agar farzandingizni xususiy maktabga joylashtirishni tanlasangiz, ta’lim muassasasi farzandingizga o‘z tizimida bepul va tegishli davlat ta’limini (FAPE) taklif qilgan bo‘lsa, xususiy maktabdagi ta’lim, maxsus ta’lim va tegishli xizmatlar xarajatlarini to‘lashi shart emas. Agar ta’lim muassasasi farzandingizga bepul va tegishli davlat ta’limini (FAPE) taqdim eta olmagan, deb hisoblasangiz, tegishli tartibda ish yuritish bo‘yicha shikoyat berishingiz mumkin. Bunda tinglov o‘tkaziladi va xolis tinglov xodimi ta’lim muassasasi farzandingizga FAPE ta’limini taklif qilgan-qilmaganligi to‘g‘risida qaror chiqaradi (24-betdagi tegishli tartibda ish yuritish haqidagi ma’lumotga qarang). Agar tegishli tartibda ish yuritish jarayonida xolis tinglov xodimi ta’lim muassasasi farzandingizga bepul va tegishli davlat ta’limini (FAPE) taqdim etmagan, degan xulosaga kelsa, u farzandingizni xususiy maktabga joylashtirish xarajatlarini sizga qaytarish huquqi bor, deb qaror qilishi mumkin.

XARAJATLARNI QOPLASH MIQDORINING KAMAYTIRILISHI YOKI QOPLASH HUQUQIDAN MAHRUM BO‘LISH

Quyidagi holatlardan biri yuz bersa, ta’lim muassasasi sizga qaytarishi kerak bo‘lgan xarajatlar miqdori kamaytirilishi yoki xarajatlarni qoplash huquqidan butunlay mahrum bo‘lishingiz mumkin:

- Farzandingizni maktabdan olib ketishingizdan oldin o‘tkazilgan IEP yig‘ilishida siz IEP jamoasi taklif qilgan ta’lim olish joyini qabul qilmasligingizni, o‘z xavotirlaringizni va farzandingizni xususiy maktabga joylashtirishni rejalashtirayotganingizni maktabga bildirmagansiz
- Farzandingizni ta’lim muassasasidan olib ketishdan kamida 10 ish kuni oldin IEPni qabul qilmasligingiz va farzandingizni xususiy maktabga joylashtirishni rejalashtirayotganingiz haqida maktabga yozma ravishda xabar bermagansiz. (E’tibor bering, ushbu 10 ish kuniga hafta kunlariga to‘g‘ri keladigan bayram kunlari ham kiradi)
- Farzandingizni maktabdan olib ketishingizdan oldin ta’lim muassasasi uni baholashni rejalashtirayotgani haqida sizga tegishli tartibda yozma xabarnoma bergan, ammo siz farzandingizni baholash uchun olib kelmagansiz
- Sud sizning harakatlaringiz asossiz bo‘lgan, degan xulosaga kelgan.

XARAJATLARNI QOPLASH HUQUQINING HIMOYA QILINISHI

Quyidagi holatlardan biri yuz bersa, xarajatlarni qoplash miqdori kamaytirilishi yoki sizga xarajatlar qaytarilishidan bosh tortilishi mumkin emas:

- Ta’lim muassasasi sizga xabarnoma berishingizga to‘sqinlik qilgan bo‘lsa
- Ta’lim muassasasi sizga xabarnoma berishingiz shartligini aytmagan bo‘lsa
- Xabarnoma berish farzandingizga jismoniy zarar yetkazishi mumkin bo‘lsa.

Shuningdek, sud yoki tinglov xodimi quyidagi holatlarda xabarnoma berilmaganligi sababli xarajatlarni qoplash miqdori kamaytirilmasligi yoki qoplash rad etilmasligi haqida qaror chiqarishi mumkin:

- Siz ingliz tilida o‘qiy yoki yoza olmasangiz; yoki
- Xabarnoma berish farzandingizga jiddiy ruhiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lsa.

Nogironligi bo‘lgan o‘quvchilar uchun stipendiya dasturlari haqida ota-onalarni xabardor qilish

Xabardor qilish qachon amalga oshiriladi?

Ta’lim muassasasi nogironligi bo‘lgan bola uchun har safar baholashni yakunlaganida yoki bolaning IEP hujjatini ishlab chiqish, ko‘rib chiqish yoxud qayta ko‘rib chiqishni boshlaganida, sizga Autizm stipendiyasi dasturi va Jon Peterson stipendiyasi dasturi haqida ma’lumot berishi shart.

AUTIZM STIPENDIYASI DASTURI

Autizm Stipendiya Dasturi haqida ma’lumot olish uchun Ohio Department of Education and Workforce veb-saytiga education.ohio.gov manziliga tashrif buyuring va qidiruv oynasiga ***Autism Scholarship Program*** deb yozing yoki autismscholarship@education.ohio.gov.elektron pochta manziliga murojaat qiling.

JON PETERSON MAXSUS EHTIYOJLAR STIPENDIYASI DASTURI (JON PETERSON SPECIAL NEEDS SCHOLARSHIP PROGRAM)

Agar farzandingiz maxsus ta’lim xizmatlarini olayotgan bo‘lsa, Jon Peterson maxsus ehtiyojlar stipendiyasi dasturida qatnashish huquqiga ega bo‘lishingiz mumkin.

Jon Peterson Special Needs Scholarship Program haqida ma'lumot olish uchun Ohio Department of Education and Workforce veb-saytiga education.ohio.gov manzili orqali tashrif buyuring va qidiruv oynasiga ***Jon Peterson Scholarship*** deb yozing yoki peterson.scholarship@education.ohio.govelektron pochta manziliga murojaat qiling.

Qo‘shimcha ma’lumot

Stipendiya dasturlari haqida ma’lumot Ohio Department of Education and Workforce veb-saytidaeducation.ohio.gov.mavjud.

Ushbu stipendiya dasturlari haqida qo‘shimcha ma’lumot olish yoki savollar bilan murojaat qilish uchun Nodavlat ta’lim imkoniyatlari bo‘limiga (Office of Nonpublic Educational Options) (614) 466-5743 yoki bepul (877) 644-6338 telefon raqamlari orqali bog‘laning.